

**URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJA BERUVCHI
PhD.03/30.12.2019.Fil.55.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

ALLANAZAROVA FERUZA KARIMBERDIEVNA

**HOZIRGI ZAMON NASRIDA NOREALISTIK HIKOYALAR
POETIKASI**

10.00.02 – O‘zbek adabiyoti

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Urganch-2023

UDK: 821.512.133.09 (043.3)

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
филологическим наукам**

**Table of contents of the abstract of the doctoral dissertation (PhD) in
philology sciences**

Allanazarova Feruza Karimberdievna

Hozirgi zamon nasrida norealistik hikoyalar poetikasi.....5

Allanazarova Feruza Karimberdievna

The poetics of non-realistic stories in contemporary prose.....28

Алланазарова Феруза Каримбердиевна

Поэтика нереалистичных рассказов в современной прозе.....53

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ

List of published

works.....57

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJA BERUVCHI
PhD.03/30.12.2019.Fil.55.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

ALLANAZAROVA FERUZA KARIMBERDIEVNA

**HOZIRGI ZAMON NASRIDA NOREALISTIK HIKOYALAR
POETIKASI**

10.00.02 – O‘zbek adabiyoti

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Urganch-2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.4.PhD/Fil22064 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Nukus davlat pedagogika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (fil-ik.urdu.uz)da va "ZiyoNet" Axborot-ta'lim portali (www.ziynet.uz)da joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Yo'ldoshev Boynazar,
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponenlar:

Orazimbetov Quanishboy Kelimbetovich,
filologiya fanlari doktori, professor

Sariyev San'at Matchonboyevich,
filologiya fanlari doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limi

Dissertatsiya himoyasi Urganch davlat universiteti huzuridagi ilmiy daraja beruvchi PhD.03/30.12.2019.Fil.55.02 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil "21" sentyabr soat 09:00 da majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 220100, Urganch shahri, H.Olimjon ko'chasi, 14-uy.

Tel: (99862) 224-67-00; faks: (99862) 224-67-00; e-mail: fil-ik.urdu.uz.

Dissertatsiya bilan Urganch davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (695-raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 220100, Urganch shahri, H.Olimjon ko'chasi, 14-uy. Tel: (99862) 224-67-00.

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil "8" 09 kuni tarqatildi.
(2023-yil "8" 09 da 22 -raqamli reyestr bayonnomasi).



Z.Do'simov,

Ilmiy daraja beruvchi Ilmiy kengash
filologiya fanlari doktori, professor.

S.S.Atajanov,

Ilmiy daraja beruvchi Ilmiy kengash
filologiya fanlari bo'yicha
falsafa doktori (PhD).

A.D.O'razboyev,

Ilmiy daraja beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi,
filologiya fanlari doktori (DSc), prof. v.b.

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon adabiyotshunosligida epik turning kichik janrlaridan biri hikoya poetikasi borasida olib borilgan tadqiqotlar negizida talqin rang-barangligi kuzatilmoqda. An'ana va noan'ana chegarasida yuzaga kelgan norealistik hikoyalar poetikasi yangi davr adabiyotshunosligida xilma-xil ifoda madaniyatining vujudga kelayotganligidan dalolat bermoqda. Insonning botiniy orzulari, maqsad va intilishlarini har tomonlama chuqur talqin qilish joriy kunda jahon miqyosida keng ildiz otgan modernistik va postmodernistik ifodaning tig'izlashuvini o'rganishga keng imkon yaratmoqda. Shunday ekan, moddiy va ma'naviy dunyo muvozanati ijodkor shaxs ruhiyatidagi olam va odamni bilish manerasida bo'y ko'rsatishini nazariy jihatdan asoslab berish muhim ahamiyat sanaladi.

Dunyo adabiyotshunosligida norealistik ifodaning turli xil shakl-u shamoyili begonalashuv jarayonida inson taqdiri, ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning badiiy asarda aks etishi hamda ularni bir butun sistema sifatida o'rganishga alohida e'tibor qaratish zarurati paydo bo'ldi. XX asr boshlarida yuzaga kelgan ekzistensializm namoyondalari vakillari badiiy adabiyotga olib kirgan asosiy ifoda yo'sini ham norealistik talqin o'ziga xosligi bilan belgilanadi. J.Joys, M.Prust, F.Kafka, A.Kamyu singari aql-zakovat egalari boshlab bergan ramziy-majoziy idrok negizida bashariyat taqdiri, uning iztiroblari-yu, kechmishlarini o'quvchiga tushunarsiz bir tarzda yetkazish banibashar kitobxonini hanuzgacha hayratga solib kelayotgani sir emas. Mana shu noreal hayot bag'rida kechgan ijodiy izlanishlar bugungi kunda ham o'z mavqeyini yo'qotmagan. Qariyb yuz yillik davr orasida yuzaga kelgan falsafiy-psixologik, estetik qamrov hikoya janrining plastik o'zgaruvchanligini isbotlab turibdi. Ushbu jihatlarni keng miqyosida o'rganish zarurati yuqoridagi fikrlarimizning yorqin dalilidir.

Joriy o'zbek nasrida norealistik hikoyalar ildizi va ularning tadrijiy takomili antik yunon va milliy adabiy an'analarimiz negizida yuzaga kelgani ayni haqiqatdir. Muallif ongi va tafakkurida qayta idroklangan hayot materiali norealistik hikoya poetikasini anglash modifikatsiyasi tadqiqotning estetik qamrovi kengayishiga sharoit tug'diradi. Mazkur ifoda shakli yangi davr nasrining poetologik shamoyilining tig'izlashuvidan dalolat beradi. Zero, «Yangi O'zbekistonni barpo etish – yaqin va olis tariximiz, betakror va noyob madaniy boyliklarimizni yanada chuqur o'rganib, ularga tayanib, mustaqil milliy taraqqiyot yo'limizni yangi bosqichda davom ettirish»¹. Darhaqiqat, ko'ngil va ruh birikuvida namoyon bo'layotgan olamda yashayotgan odam muammolarini to'g'ri talqin qilishda psixologik idroklash malakasi anchayin turfalashib borayotganini taqozo etmoqda. Falsafiy-estetik ifodaning norealistik hikoyalarda akslanishi va yozuvchi idealining mavhumiy tasvirini tadqiq qilish mavzu dolzarbligini tayin etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 16-fevraldagi “Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida”gi PF-4958-son Farmoni, 2019-yil 8-oktabrdagi “O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-

¹Мирзиёев Ш.М. “Янги Ўзбекистон” газетасига интервью.// Янги Ўзбекистон, 2021 йил, 17 август.

yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son Farmoni, 2017-yil 13-seniyabrda “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida”gi PQ-3271-son Qarori, 2018-yil 5-iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3775-son Qarori, 2019-yil 29-oktabrdagi “Ilm-fan va ilmiy faoliyat to‘g‘risida”gi O‘RQ-576-son Qarori, 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni va mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Mavzuning o‘rganilish darajasi. Jahon adabiyotshunosligida epik turning kichik janri hikoya badiiyati va uning tadrijiy taraqqiyoti antik yunon olimi Arastu tomonidan o‘rganilganligi ma’lum². Keyinchalik jahon va rus adabiyotshunosligida bu borada qator tadqiqotlar yaratildi. Jumladan, A.A.Potebnya, D.N.Ovsiyanko-Kulikovskiy, A.G.Grofed, L.S.Vigotskiy, M.M.Baxtinlarning psixoanalitik; V.Shklovskiy, V.V.Vinogradov, V.M.Jirmunskiy, Yu.N.Tinyanov, B.V.Tomashevskiy, G.O.Vinokur, Klod Levi-Stross, L.S.Vigotskiy, R.Bart, Yu.Lotman, D.S.Lixachev, F.Shleyermexer, V.Diltey, M.Xaydegger, G.G.Gadamer kabi olimlar, estetika ilmi bilimdonlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda hikoya badiiyati hamda yozuvchi uslubi borasida to‘xtalgan.

O‘zbek adabiyotshunosligida mazkur masala yuzasidan I.Sulton, O.Sharafiddinov, M.Qo‘shjonov, N.Karimov, I.G‘afurov, U.Normatov, N.Xudoybergenov, Y.Solijonov, A.Rasulov, B.Nazarov, N.Rahimjonov, H.Umurov, D.To‘rayev, Q.Yo‘ldoshev, D.Quronov, U.Jo‘raqulov, I.Yoqubov, A.Ulug‘ov, B.Karimov, M.Qo‘chqorova, S.Matyakupovlarning tadqiqotlarida muammoga u yoki bu darajada munosabat bildirishgan.

Tadqiqotning maqsadi hozirgi o‘zbek nasrida norealistik hikoyalarning shakllanish qonuniyatlarini badiiy tasviriy vosita va usullar yordamida kuchaytirishda yozuvchilarning individual yondashuv mezonlarini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

²История русского литературоведения. – Москва: 1980; Сакулин П.А. Филология и культурология. – Москва: 1990; Борев Ю. Искусство интерпретации и оценки. – Москва: 1981; Сент-Бёв Ш. Литературные портреты. Критические очерки. – Москва: 1970; Барт Р. Избранные работы. Семиотика. Поэтика. – Москва: 1981; Его же: Введение в структуральный анализ повествовательных текстов // Зарубежная эстетика и теория литературы XIX – XX вв. – Москва: 1987; Лотман Ю.М. Анализ поэтического текста. – Ленинград: 1972; Гадамер Г.Г. Актуальность прекрасного. – Москва: 1991.

-hozirgi o'zbek nasrida norealistik hikoyalar poetikasini aniqlashda jahon hamda o'zbek adabiyotshunosligida yuzaga kelgan nazariy-ilmiy qarashlar asosida umumlashtirish;

-an'anadan – noan'anaga o'tish tamoyillarini, ularning yuzaga kelishdagi ijtimoiy-psixologik jarayonlarning borishini, jahon yozuvchilari ijodi asosida qiyoslab talqin qilish;

-hikoyada ramziy-metaforik talqin o'ziga xosligining sabab va oqibatlarini o'sha davr ruhiyatidan kelib chiqqan holda baholash;

-muallif pozitsiyasi hamda muhit sur'atini jamiyat a'zolari timsolida tadqiq qilish, hikoya arxitektonikasida xarakter individualligini ta'minlashga qaratilgan uslubiy kategoriyalarni dalolatlash;

-poetik talqinda an'ana va noan'anaviy jarayonlarning chuqurlashuvini muallifning ong- shuurida yuzaga kelgan tushuncha ekanligini belgilash;

-mif va ramz, mif va tush, mif va obraz tushunchalarini norealistik hikoyalar negizida nazariy jihatdan asoslash.

Tadqiqot obyekti sifatida N.Eshonqul, U.Hamdam, I.Sulton, A.Yo'ldoshev, Sh.Hamroning norealistik talqin prinsiplari aks etgan jahon adabiyoti namunalari ta'sirida paydo bo'lgan hikoyalari qiyosiy usulda o'rganishga murojaat qilindi.

Tadqiqot predmetini norealistik hikoyalar poetikasida uslub, ijodiy konsepsiya, muallif dunyoqarashida shakllangan voqelik, syujet va kompozitsiya yaxlitligini aniqlashda dunyo adabiyotida yuzaga kelgan sifat o'zgarishlari, joriy o'zbek hikoyachiligi muammolarini tahlil va talqin qilish tayin etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyani shakllantirishda struktural, biografik, germeneytik va psixologik, qiyosiy-tipologik tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

mustaqillik davri o'zbek hikoyalarida, muallif ijodiy konsepsiyasini yuzaga chiqarishda jahon hikoyachiligi tajribalar asosida ramziy-majoziy talqin o'ziga xosligi norealistik hikoyada inkishof qilingani dalillangan;

N.Eshonqul, U.Hamdam, I.Sulton, A.Yo'ldoshevning ramzlar tili asosiga qurilgan hikoyalarida muallif va xarakter yaxlitligi ildizlari antik yunon va turkiy xalqlar madaniyatida paydo bo'lgan mifologik qarashlarning mifopoetik talqini umumlashtirilgan;

norealistik qamrov o'ziga xosligida syujet va kompozitsiya tig'izligi simvolik tasvirda voqelik obyektiv reallik bilan kechinma uyg'unlashuvi asoslab berilgan;

yo'zuvchi ijodiy uslubi va adabiy komponentlar birligi hikoya poetikasida badiiy tasvir vositalarining o'rni hamda individual uslub obraz tasvirining asosi ekanligi isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

- Ulug'bek Hamdam va Isajon Sulton asarlarida muallif "ong"i va "men"ini ifodalashning mif va din, falsafa va adabiyot, tavsiflash va til vositalari asosida rivojlanish tadriji va epos, drama, romanlarning o'ziga xos tamoyillari yunon mifologiyasi bilan aloqadorligi dalillangan;
- Ulug'bek Hamdam ijodining "Yolg'izlik" qissasidan boshlangan individual uslubiy xususiyatlari va muallif ijodiy konsepsiyasining badiiy takomili uning

asarlarda aks etgan “men” va “ong” tabiatidagi evrilishlar hamda yozuvchi ijod laboratoriyasi o‘zib borganligi asoslangan;

- Isajon Sultonga xos mifopoetik talqin unsurlari mifologik tafakkurning poetik metamorfoza negizida yuzaga kelishi va badiiy mifopoetik talqinga aylanish jarayonining ong va tuyg‘uda yaxlit konseptual sabab va omillari asoslangan;
- yozuvchilar (Ulug‘bek Hamdam, Isajon Sulton) ijodiy konsepsiyasidagi “ong” va “men” talqini jahon badiiy tafakkurida yuz berayotgan ijodiy an‘ana va yangilanishlar, badiiy tafakkur borasidagi ijodiy evrilishlar, mutafakkir zotlarning milliy o‘zlikni anglash borasidagi milliy va umuminsoniy axloqiy qadriyatlar hamda falsafiy-axloqiy qarashlari asosida dalillangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi respublikamiz hamda jahon olimlarining ilmiy-nazariy fikr va qarashlariga asoslangani; nashr qilingan tezis va maqolalar, ilmiy jurnallarda tadqiqotlar tegishli muassasalar tomonidan tasdiqlangani; tadqiqot vazifalariga mos keluvchi, o‘zaro bir-birini to‘ldirib boruvchi tadqiqot metodlari qo‘llanilgani; yangi adabiyotshunoslik metodologiyasi yordamida tahlil va talqin qilingani; dissertatsiyada olg‘a surilgan amaliy taklif, tavsiya hamda xulosalarning ishonchliligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati tahlilga tortilgan adabiy-badiiy, ilmiy-nazariy manbalardan, izlanishning yakuniy xulosalari sifatida tavsiya etilgan materiallardan, yozuvchi uslubi, adabiy mahorati va adabiyot nazariyasi masalalari hamda istiqloq davri o‘zbek hikoyachiligiga oid izlanishlarda foydalanish mumkinligi bilan o‘lchanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati oliy ta‘lim tizimidagi “Yangi o‘zbek adabiyoti”, “Hozirgi adabiy jarayon”, “O‘zbek adabiy tanqidi tarixi”, “Adabiyotshunoslikka kirish” kabi fanlardan darslik, o‘quv qo‘llanmalar yaratishda yordamchi material sifatida hamda yozuvchilar ijodi bo‘yicha alohida seminar va maxsus kurslarda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Zamonaviy o‘zbek hikoyachiligida norealistik talqin va ifoda shakllarini tadqiq etish hamda uning ilmiy-nazariy asoslarini ishlab chiqish asosida:

mustaqillik davri o‘zbek hikoyalarida, muallif ijodiy konsepsiyasini yuzaga chiqarishda jahon hikoychiligi tajribalar asosida ramziy-majoziy talqin o‘ziga xosligi norealistik hikoyada inkishof qilingani dalillangan. Hikoya janri ichki va tashqi rivojlanish qonuniyatlariga oid nazariy-ilmiy qarashlari xulosalaridan O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi “Qoraqalpoq folklori va adabiyoti janrlarining nazariy masalalarini tadqiq etish” mavzusidagi fundamental tadqiqot loyihasi va 2016-2021-yillarda amalga oshirilgan F1-FA-O-43429 “Qoraqalpoq folklorshunosligi va adabiyotshunosligi tarixini tadqiq etish” mavzusidagi fundamental ilmiy loyihani bajarish jarayonida foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Qoraqalpog‘iston bo‘limining 2022-yil 20-dekabrda 540/1-ma‘lumotnomasi). Natijada ona tili va adabiyoti fani o‘qituvchilarining dars samaradorligini oshirishga erishilgan;

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi “Qoraqalpoq folklori va adabiyoti janrlarining nazariy masalalarini tadqiq etish” mavzusidagi fundamental tadqiqot loyihasi va 2016-2021-yillarda amalga oshirilgan FA-F1 G002 “Qoraqalpoq

folklori va adabiyoti janrlarining nazariy masalalarini tadqiq etish” mavzusidagi fundamental ilmiy loyihani bajarish jarayonida foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Qoraqalpog‘iston bo‘limining 2022-yil 10-oktyabrdagi 384/1-ma’lumotnomasi). N.Eshonqul, U.Hamdam, I.Sulton, A.Yo‘ldoshevning ramzlar tili asosiga qurilgan hikoyalarida muallif va xarakter yaxlitligi ildizlari antik yunon va turkiy xalqlar madaniyatida paydo bo‘lgan mifologik qarashlarning mifopoetik talqini umumlashtirilgan. Natijada ixtisoslik fanlarini o‘qitish, malaka oshirish kurslari, shuningdek, ona tili va adabiyoti fani o‘qituvchilarining dars samaradorligini oshirishga erishilgan;

O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi “Adabiy tanqid” bo‘limida yoshlar orasida kitobxonlik madaniyatining shakllanishida, ularning ma’naviy olamini boyitish va dunyoqarashini kengaytirish bo‘yicha ilmiy xulosalar, norealistik qamrov o‘ziga xosligida syujet va kompozitsiya tig‘izligi obyektiv reallik bilan kechinma uyg‘unlashuvi (O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasining 2022-yil 6-dekabrdagi 01-03-1549-son dalolatnomasi) asosida kitobxonlik madaniyatining shakllanishi va dunyoqarashning kengaytirilishiga zamin yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati dissertatsiyada bayon qilingan yondashuvlar hozirgi o‘zbek hikoyachiligining uslubiy xususiyatlari, badiiy shakl unsurlarining badiiy mazmuni shakllantirish va ifodalash ta’lim tizimida o‘qitilayotgan adabiyot tarixi, adabiyot nazariyasi fanlari bo‘yicha darslik va o‘quv qo‘llanmalar tayyorlashda maxsus kurs va seminarlar tashkil etishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 6 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda aprobatsiyadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 14 ta ilmiy ish, shulardan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, jumladan, 3 tasi respublika, 2 tasi xorijiy jurnallarda e’lon qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch asosiy bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Ishning umumiy hajmi 115 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning “**Kirish**” qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslanib, tadqiqotning maqsad va vazifalari, predmeti va obyekti aniqlangan. Tadqiqotning O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilib, uning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon etilgan. Olingan natijalarning ishonchliligi asoslanib, ishning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan. Tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, aprobatsiyasi, tadqiqotning tuzilishi va hajmi ko‘rsatilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi “**Norealistik talqin va o‘zbek hikoyachiligi**” deb nomlangan bo‘lib, “**Jahon adabiyotida an’ana va zamonaviy nasr**”

takomillashuvi” faslida badiiy nasr tadrijiy takomilida, xususan, yangi davr hikoyachiligining mavzu-mundariyasi ham tubdan o‘zgarishga yuz tutib, adabiy solnomalarning ranginlashuviga keng yo‘l ochishi haqida so‘z yuritiladi. Hozirjavob janr hikoya arxitektonikasi poetikasidagi yaxlitlikni, jahon adabiy durdonalaridan oziqlanish takomili joriy o‘zbek nasrida alohida bir o‘rganilishi lozim bo‘lgan muhim tadqiqotlardan biridir. XX asr adabiyoti, ayniqsa, nasriy asarlar manzaralarida bo‘y ko‘rsatayotgan shaklan va mazmunan, uslubiy jihatdan qamrovning kengayishi, turfalanishi ushbu mulohazalarni to‘laqonli dalolatlaydi. Qariyb yuz yillik o‘zbek hikoyachiligi tajribasi shuni ko‘rsatadiki, an’ana va noan’ana chegarasini aniqlab olish, norealistik hikoyachilik poetik qonuniyatlarini nazariy baholash muammoning dolzarbligini tayin etadi. “Asrimiz boshidagi Turkiston ijtimoiy-tarixiy sharoitining milliy adabiyotimiz taraqqiyotiga ta’sirini yorqinroq tasavvur qilish uchun, fikrimizcha, uni Yevropa adabiyoti tarixi bilan muqoyasa qilish foydalidir. Kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, jadidchilik harakati o‘zining ko‘p jihatlari bilan XVIII asrda Yevropada keng quloq yoygan ma’rifatchilik harakatiga o‘xshashdir. Har ikki harakatga xos mushtarak nuqtalarga bir qur nazar solinsayoq, bizningcha, bu fikrimizda jon borligi anglashiladi. Avvalo shuki, har ikki harakat ham feodal asoslar yemirilib, ularning o‘rnida kapitalistik munosabatlar qaror topa boshlagan paytda maydonga kelgan”³. Binobarin, hikoyachilik an’anasi tadrijiy taraqqiyoti o‘tgan asrning 20-30 yillarida jadidlar harakati boshchiligida olib borilgan ijtimoiy-siyosiy islohotlar, badiiy nasrdagi jiddiy takomillashuv negizida yanada barqarorlashdi. Mana shu belgilar hikoya kompozitsiyasini yanada turfalanishiga zamin tayyorladi. Yozuvchilar jahonning ilg‘or realistik an’analarini qurbon qilib, norealistik talqin prinsiplarini eksperiment sifatida qo‘llay boshladilar. Yevropa adabiyotida birinchi jahon urushi va urushdan keyingi xalqning og‘ir turmush tarzi badiiy shaklni – ramziy-metaforik yo‘sinda inkishof qilish eshigini ochib berdi.

Badiiy adabiyotning biz ko‘nikkan tushunchadan emas, uning o‘ziga xos makon, zamon, davr bilan bog‘liq holda kechadigan kayfiyat, holat, ruhiyati o‘sha yaratuvchi xalq ijodkorlarining olam va odam hodisalarini chuqur bilish malakasi bilan ham belgilanadi. O‘zgarayotgan dunyoning qiyofasiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, g‘oyat ixcham sanaladigan hikoyalarda jahonning sinalgan adabiy tajribalarining o‘rni ham qabarib ko‘rinadi. Shunday ekan, jamiyat va unda yashovchi odamlar kayfiyati, falsafiy-estetik baholash manerasi yozuvchining ijodiy izlanishlari bilan bevosita chambarchas bog‘liq.

XX asr tongida Yevropa va Amerika, Lotin Amerikasi hikoyachiligi maktabi o‘zbek nasriga g‘oyat sezilarli darajada katta ta’sir ko‘rsatdi. J.London, E.Xemingvay, J.Joys, F.Kafka, A.Kamyu, L.Tolstoy, F.Dostoyevskiy, Stendal, Balzak, X.Borxes singari badiiy tafakkur sohiblari yaratgan asarlardan bevosita va bilvosita ilhomlanish, ulardan adabiy ta’sirlanish, qunt bilan o‘rganish natijasida o‘zbek adabiyotida yangi-yangi nomlar paydo bo‘ldi. Bu an’ana ma’lum muddat jadid mutafakkirlari bilan yashadi-yu, sho‘ro siyosati izg‘irinlarida katta uzilishni paydo qildi. Ayni shu uzilishni payvandlash yozuvchilarning chekiga istiqloq yillarida katta vazifani yukladi. Har tomonlama yopiq hudud sanalgan O‘rta Osiyo xalqlari

³ Куронов Д. Чўлпон насри поэтикаси. –Т.: Шарк, 2004. –Б. 9.

faqat biryoqlama tarzda kun kechirdi. Xalq xo‘jaligida yetishtirilgan mahsulotlarni ulug‘ marra timsolida ideallashtirish yozuvchilarni ayni shu tushov iskanjasida saqlab (tiyib) turishga tomon tarbiyaladi. Bu mudhish ma’naviy-ruhiy jarayon asoratlari uzoq yillar o‘z izini yo‘qotmadi.

Bobning ikkinchi fasli **“Norealistik hikoyada uslub rang-barangligi”** deb nomlangan bo‘lib, jahon badiiy-estetik tafakkuri hosilasi sifatida namoyon bo‘layotgan hikoya janri o‘zbek nosirlari tomonidan hamma zamonlarda o‘ziga xos tarzda inkishof qilinib kelinmoqda. Bu haqda tadqiqotchi D.Xoldorov: “Jahon adabiyotida XX asrning birinchi yarmidayoq noan’anaviy tasvir uslubi paydo bo‘ldi. Ayniqsa, Marsel Prust (Fransiya), Jeyms Joys (Irlandiya), Frans Kafka (Chexoslovakiya) singari ijodkorlar bu noan’anaviy yo‘nalishda maktab yaratdi. Jahon adabiyotining durdonalaridan boxabar bo‘lish, voqelikni irratsional qabul qilish va talqin etish, ong oqimi, botiniy shuur o‘zbek nasrida ham o‘z ifodasini topdi. Zero, hech bir milliy adabiyot o‘z qobig‘ida, yolg‘iz o‘zining an’ana va muhitida taraqqiy etishi mumkin emas. Shu ma’noda jahon adabiy maktablaridan saboq olish va yangilikka intilish jarayonlari o‘zbek adabiyotining 80–90-yillar avlodi nosirlari ijodida yuzaga kela boshladi”⁴. Darhaqiqat, e’tibor berilgan bo‘lsa, so‘nggi o‘n yilliklar badiiy vaqt tasviri insonning yashash tarzi, fikrlash modifikatsiyasida evrilish yasalishiga katta diqqat qaratilmoqda. Iste’dodli yozuvchilardan Nazar Eshonqul, Ulug‘bek Hamdam, Isajon Sulton, Shodiqul Hamro, Abduqayum Yo‘ldoshev asarlarida xilma-xil uslublarda zohir bo‘layotgan yangi inson konsepsiyasi (jamiyat va inson munosabati) tig‘izligi o‘z tajassumini teran bir tasvirlarda topib borayotgani fikrimizning yorqin dalilidir. Sharq-u G‘arb adabiy-estetik an‘analari uchrashgan badiiy maydon haqiqatan ham olam va odam muvozanatini bir ipga tizilgan marjondek falsafiy-psixologik rakursdan turib tasvirlash yo‘sinini zabt qildi. Natijada insonga munosabat o‘zgardi. Fikrlashga undovchi asarlar dunyoga kelishiga katta zamin hozirlandi. “Moddiy dunyo birlamchi, ong ikkilamchi deya butun olam uzviylikni inkor etgan, so‘ng esa hayot qonuniyatini anglab yetgan inson bir-biriga monand dunyo mantig‘idan to‘g‘ri xulosalar chiqara boshladi”⁵. Darhaqiqat, ong va tuyg‘uda kechayotgan azim o‘zgarishlarni anglab yetish va ularni to‘g‘ri qabul qilish borasida xilma-xil qarashlar yuzaga kela boshladi. Bu esa o‘z-o‘zidan badiiy shaklda uslublar xilma-xilligini keltirib chiqarishi tabiiy bir hol ekanligi yaqqol sezildi.

Ta’kidlash joiz, taniqli yozuvchi Nazar Eshonqul hikoyalarida g‘arb adabiy-estetik an‘analariga (Kafka), ekzistensial tafakkur hosilasi (Kamyu), modernistik talqin birikuvchi (Joys)ga taqlidan yangi bir milliy qahramon yaratish eksperimenti yuzaga keldi. Mifologik tafakkurdan mifopoetik tafakkurga o‘tish tadriji Isajon Sultonda, norealistik talqin o‘ziga xosligi Ulug‘bek Hamdam badiiy izlanishlarida buning go‘zal namunalarini uchratish mumkin. Har uchala adib uslubiy jihatdan bir-biriga sira o‘xshamas va takrorlanmas badiiy izlanishlarni olib borayotgani quvonarli holat. Shuni qayd etish lozimki, hikoya janri ham o‘zining tasvir usullari an’anadan – noan’anaga o‘tar ekan, oldingi boshqa yo‘nalish va tamoyillarni puxtalik bilan

⁴ Холдоров Д. Руҳий таназзул тасвири // <https://jahonadabiyoti.uz/2017/12/01/дилмурод-холдоров-руҳий-таназзул-тас/>

⁵ Пардаева З. Ўзбек романи поэтикаси. –Т: “Фан”, 2003. –Б.29.

sintezlaydi. Bu borada yozuvchilarning olam-u odam haqidagi teran falsafiy-estetik dunyoqarashi alohida o‘rin tutishini yodda tutmoq joiz.

Nazar Eshonqul badiiy izlanishlarining eng yuksak namunalari “Maymun yetaklagan odam”, “Xaroba shahar surati”, “Zulmat saltanatiga sayohat” singari hikoyalarida Frans Kafka uslubiga xos qator jihatlar ko‘zga tanlansa-da, adib mazkur hikoyalarida o‘zbekona milliy ruhni yangicha ifodalay olganligini kuzatamiz. Adib hikoyalarida ekspozitsiya qahramonning ismi bosh harfi bilan boshlanib yoki birinchi shaxs tilidan maroq bilan so‘zlab beriladi. Adib hikoyalarida kafkaona badiiy tasvir usullarini yangicha bir shaklda norealistik talqinda yorqin bo‘yoqlarda o‘quvchiga yetkazishga harakat qiladi. Badiiy uslub – xilma-xil ifodalarning birikuvini taqozolaydi. Shu ma’noda, N.Eshonqul tasvirda ko‘p qatlamlilik prinsipiga doim amal qilishi ko‘zga tashlanadi.

Adibning “Zulmat saltanatiga sayohat” nomli hikoyasida quyidagi tasvirlarga ro‘baro‘ kelamiz:

“Menga mashhur adib M. haqida maqola yozish topshirilganda, ishni nimadan boshlashni bilmay kalovlanib qoldim. M. bugungi kunda unutilgan yozuvchiga aylangan bo‘lsa-da, hali ham ko‘plar u haqida biron jiddiy xulosa aytishdan qo‘rqishar, o‘sha – olis yillar ortida unga adabiyot faxri sifatida o‘rnatilgan salobatli haykal va hali ham javonlarda ko‘pdan beri kutib o‘qilmay qo‘ygan yostiqlay kitoblarda tutib yotgan dovrug‘i har qanday odamni esankiratib qo‘yardi. U paytlar M. eng ko‘p nusxada chop etilgan va eng ko‘p mukofot-u unvonlar olgan, eng ko‘p e’tirof etilgan yozuvchi sanalar, o‘sha paytda adabiyotning to‘rida o‘tirgan yozuvchilardan edi”⁶.

Yozuvchi hikoyada xuddi Kafka singari voqelikni to‘g‘ridan to‘g‘ri “hikoya ichida hikoya” qilish usulidan boshlaydi. Ismlar ham xuddi bosh harf bilan boshlanib, barcha xarakter bitta har mohiyatida birlashadi. Adib bunday usulni ko‘pchilik asarlarida qo‘llab, odat tusiga aylantirib yuborgani sir emas. Endi hikoyaning mavzusiga qaytamiz. Hikoyada zulmat nimaning ramzi? Yozuvchi bir paytlar dongdor adib haqida maqola yozishni niyat qilib, M. ismli qahramonning butun hayotini xuddi katta roman kabi norealistik tarzda hikoya qilib beradi. Adib hikoyada katta bir romanga xos badiiy tafakkurni siqiq bir tarzda qayta idroklaydiki, xuddi M.ning “ma’naviy tanazzul uyi”ni o‘quvchi ko‘z o‘ngida gavdalantira oladi. Badiiy bo‘yoqdorlik ikki xil usulda namoyon bo‘ladi: birinchisi, M.ning yaqin sirdoshi, sevgilisi qiz orasida kechgan ayanchli hayoti bo‘lsa, ikkinchisini Q. ismli razil bir dushman bilan bog‘liq voqealar galereyasi tashkil qiladi.

Tadqiqotning **“Norealistik hikoyada yozuvchi ijodiy konsepsiyasi talqini”** deb nomlangan uchinchi faslida inson qalbining eng teran tuyg‘ularini ham so‘z vositasida aks ettirish borasidagi ijodiy izlanishlar olib borilayotgan islohotchilik kayfiyatining bir uzvi ekanligi haqidagi mulohazalar bayon qilinadi.

Ulug‘bek Hamdamning “Tosh” nomli hikoyasidagi ijodiy konsepsiya badiiy takomili “Yolg‘izlik” qissasida chuqur falsafiy-estetik talqin qilinib, unda inson qalbining teran qatlariga nazar tashlanadi. Har ikki asar ham bir vaqtda yaratilgan.

⁶ Эшонқулов Н. Момоқўшиқ. Қисса ва ҳикоялар. –Т.: “Ғафур Ғлуом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти”, 2019. –Б.55.

Hikoyada birinchi shaxs tilidan ibtidolanib, erkak va ayol munosabatlari bir kunda bo‘lib o‘tadi. Syujet juda oddiy tuyulishi mumkin, ammo yozuvchi bu o‘rinda boshqa bir masalani ilgari surgan. “Tosh” mifik tasavvur yanglig‘ – inson qalbidagi “mehr, muhabbat”ning yo‘qolib ketayotgan shakli ekanligi ayonlashadi. U Jo‘raqulov yozishicha: “Jahon tan oladigan diniy kitoblarda, jumladan, Sharq idealistik falsafasida bunday murakkab tushunchalar tartib – tartibsizlik, ezgulik-yovuzlik, yaxshilik – yomonlik, nur – zulmat juftliklarida aniq, sodda talqin etiladi. Ammo shuni alohida ta’kidlash joizki, Sharq va G‘arb idealistik falsafasi zohiran juft ko‘rinuvchi tushunchalarning har birini ambivalent (ikki tomonli) hodisa sifatida o‘rganadi. Bunga ko‘ra, ezgulik, yovuzlik, tartib, tartibsizlik, yaxshilik, yomonlik, nur va zulmat tushunchalari absolyut mustaqil holatida ham dialogik mohiyat kasb etadi. Universal ma’nodagi hayot tushunchasi negizida aynan shu absolyut mohiyat yotadiki, buni anglangan va anglash mumkin bo‘lmagan, adabiy va o‘tkinchi narsa-hodisalarning barchasiga nisbatan tatbiq etish mumkin”⁷. Aynan mana shu jihat inson botinida va ong ostida “uxlab yotgan” xislatlarning uyg‘onib ketishi, jamiyat va inson ziddiyatlarida ochiqlanishi haqidadir. Bu o‘z-o‘zidan sodir bo‘lmaydi. Ulug‘bek Hamdam tasvirni uzoqdan aylantirib – toshga birlashtiradi. Inson va tosh tushunchasining poetik ifodasi mana shu hikoyada yanada go‘zal mohiyatga evriladi. Hikoyaga e’tibor beramiz:

“Mana, qarang, necha fursatdir qanday kayfiyat sirtmog‘ida talvasa qilaman men. Tovba-tovba, na jonim uziladi-yu va na la’nati sirtmoq!..

Bugun ham uning iskanjasida toqatim toq bo‘lganda shartta kiyindim-da, tashqariga chiqdim-ketdim. Chunki ko‘ksimdagi toshning zalvori tobora tosh bosayotganini sezib, bundan taraddudga tusha boshlagandim. Ko‘chada odamlarning yaxshiliklariga, muruvvatlariga ro‘baro‘ kelsam-u zora tosh ham eriy qolsa. Masalan, buyrakdagi tuz misol... Axir, u ham ovqat, suv va hokazolarni noto‘g‘ri iste’mol qilishdan yillar davomida inson a’zosida yig‘ilgan toshdek tuz-da. Yoki tuzdek tosh... Nima bo‘lgandayam buning ham vaqtida oldi olinmasa, sahibini alal-oqibat turli azoblarga, balolarga giriftor aylaydi. Shunga o‘xshab men ham ichimdagi tosh bilan uzoq muddat yurishni o‘zim va o‘zgalarning hayotiga xatar, deb o‘ylab qoldim. U buyrakdagi toshdek erimasa ham, arimasa ham, loaqal ichda - ichkarida qolsin. Shunday dedim-u o‘zimni tashqariga urdim...”⁸.

Hikoya qahramoni o‘z botinidagi siqilish, lohaslik va badbin kayfiyatdan zada. U boshqalar qatori baxtli yashagisi keladi-yu, buning inkonsizligidan aziyat chekadi. Qahramon o‘y-xayollarini bandi qilgan narsa ham kuchli depressiya, aqldan ozar darajadagi ayriliq va nadomatlardir. Hikoyaning o‘q ildizi bog‘ va undagi qirmizi rangda tovlanib borayotgan juvon, uning izidan ergashgan “nafs”ning yuzaga chiqish sabab va oqibatlarini ko‘rsatishga qaratilganligi bilan belgilanadi. Ayniqsa, ayolning husn-u malohatda tengsiz latofatiga asir bo‘lish qahramon qalbini junbishga keltiradi. U hayotning rangin tomonlariga nazar tashlaydi. Freyd talqin qilganidek, qahramon botinidagi “tosh” dunyo bilan ayni shu ayolga uchrashgan nuqtadan boshlab uyg‘onadi. Bu “ongsiz hissiyotlar, mayllar, kechinmalar jamlanmasidir. Bu yashirin

⁷ Жўракулов У. Миф ва адабий жараён. //Ўзбек адабий танқиди. Антология. –Т: “Турон-Иқбол”, 2011. –Б.513.

⁸ Ҳамдамов У. Тўлин ой қиссаси. –Т: “Ўзбекистон”, 2017. –Б.154-155.

hissiyotlar, axloq, muhit, aqliy cheklovlardan mutlaqo xoli. Ular qachonlardir boshdan kechirilgan, lekin mantiq, axloq va aql qoliplariga, o'lhovlariga, tartiblariga, qoidalariga sig'magani uchun chetga surilgan, to'liq ozod, erkin hissiyotlardir. Ular aqlning o'lhovlariga sig'magani uchun ham ong ostiga tushib olishgan. Bu hissiyotlar zarur paytlarda o'zini namoyon qiladi. Bunaqa hissiyotlar har bir shaxsda mavjud. U barcha ongosti qatlamlarini boshqaradi, yo'naltiradi, shakl va qiyofa, rang-tus beradi"⁹. Shuni ta'kidlash o'rinliki, yozuvchi aynan mana shu jihatga juda katta mazmun yuklaydi. Freyd, Yung singari psixoanalizlar talqinlarida shaxs psixikasini poetik talqin qilishga alohida e'tibor beradi. Shaxs konsepsiyasi shu tariqa o'zligini namoyon qiladi. Buning "Tosh", "Lola" nomli hikoyalarida ham o'ziga xos tarzda talqin qilinishi fikrimiz yorqin dalilidir:

"Ayol sotuvchiga nimadir dedi. Sotuvchi esa javoban ikkita kattagina baliqni olib tarozi pallasiga qo'ydi va vazn ko'rsatgichiga qaradi. Shu asno palladagi baliqlardan biri dumini "tap-tap" etib pallaga urdi. Ayolning ko'zlari yiltillab, damodam yutindi. Sotuvchi esa baliqni barmoqlari bilan bosdi, tinchlangandek bo'lgach, yana ko'rsatgichga qaradi. Baliq yana potradi. Tarozi ko'rsatgichi yana o'ynadi. Sotuvchining sabri toshdi, baliqni palladan stol ustiga oldi-da, tarozi toshi bilan – xuddi pachoqroq odamning kichikroq kallasidek keladigan dumaloq, qop-qora tosh bilan naq boshiga jiqqillatib tushirdi..."¹⁰.

Hikoyaning mohiyati mana shu tasvirda ochiladi. Qahramonning yetib kelgan manzili mana shu o'rinda ochiq-oydin namoyon bo'lib, ijodkor konsepsiyasini yuzaga chiqarishga zamin yaratadi. Tosh qahramonning ichida bo'lgani uning tashqariga chiqishi, har qanday insonning botinida zulmga qarshi isyon bo'lishi real mohiyat kasb etadi. Bu yerda yozuvchi majozga tayanadi. Baliq – tilsiz bir jonzot. Ayol – nafs ramzi.

Yozuvchi Ulug'bek Hamdam hikoyalarida jamiyatni toza ko'rish istagi mudom dolzarb mavzu sifatida qaraladi. Undagi modernistik, ya'ni norealistik talqin xilma-xilligi voqelikni o'quvchiga og'ir hazm qilinadigan shtrixlarda berishida ekanligini unutmash lozim. Chunki o'quvchi ham jiddiy tayyorgarlik bilan kitob mutolaasiga kirishishi muhim. Bunday falsafiy-estetik talqin Rumi, Navoiy, Cho'lpon singari ma'rifat egalarining hayotni anglash va anglatish konsepsiyasidan bahra olganlikni tasdiqlaydi. Zotan, hikoyadagi bosh konseptual mohiyat insonni yovuzlikdan zoda bo'lishi va jamiyatdagi har bir a'zolarning fikrlash tarzining o'ziga xosligi, nafs "it"iga ergashish oqibatida ko'plab fojealarning bolalab ketishiga mantiqiy urg'u berganligida ko'rinadi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi "**Mifopoetik tafakkur va ramzlar sintezi**" deb nomlanadi. Uning birinchi fasli "**G'arb adabiy tafakkurining o'zbek adabiyotiga ta'siri**" deya atalib, mif – badiiy asarda universal hodisa bo'lib, uni har bir yozuvchi o'zining imkoni, iste'dodi, bilim va tajribasi bilan boyitadi. Ayniqsa, XX asr o'zbek hikoyachiligi tajribasi shuni ko'rsatadiki, bu hodisa jahonning ilg'or adabiyot maktablari vakillari ta'sirida yanada sayqallanishi izohlangan. Mifopoetik tafakkur tarzi asrlardan buyon eposlarda yashab kelmoqda. Yozma adabiyot paydo bo'lgandan

⁹ Эшонкулов Н. Ижод фалсафаси. –Т: "Академнашр", 2018. –Б. 41.

¹⁰ Кўрсатилган адабиёт. – Б. 160-161.

keyin Navoiy davrigacha u yoki bu janrda sinkretik ko‘rinishda namoyon bo‘ldi. Navoiyning barcha asarlarida o‘zi yaratgan mifologik tafakkur mavjud. U o‘sha davr mifologiyasini o‘lmas obida “Xamsa” timsolida yangiladi. Muqaddas Qur’oni karim oyatlari, komillik va uning bosqichlari Navoiy asarlarida universal hodisa bo‘lib hisoblandi. H.Umurov: “Yozuvchi har bir qahramonning ovozi, yuz ifodasini, kechinmasini, so‘zlashish uslubini berish uchun, uning xatti-harakatini, ifoda yo‘nalishini asoslash uchun, albatta, o‘sha qahramonlarning qiyofasiga kirishni shart qilib qo‘yadi. Busiz yozuvchi qahramonning o‘sha sharoitdagi, ayni shu vaziyatdagi qalb holatining o‘ziga xosligini tasvirlay olmaydi. Darvoqe, tasvirlanayotgan shaxs bilan yozuvchining shaxsi o‘rtasida o‘xshashlik bo‘lmasa-da, unda yozuvchi avtobiografiyasining unsurlari ko‘rinmasa-da, baribir, o‘zining yuzlab qahromonlarning ichki tabiatiga mos o‘zak nuqtalarni topib tasvirlash qudratiga ega. Chunki, yuqorida aytganimizdek, har birimizda yashirin tarzda insoniy xususiyatlarining hammasi mavjud, lekin ulardan qay biri bo‘lsin, ichki ehtiyoj (qahramon xarakter) talabi bilan birinchi planga chiqqanida, yozuvchi tasavvurida jonlanaveradi. Ba’zilar o‘ylagandek, hamma dunyoda bor ruhiy kechinmalarni yozuvchi boshidan o‘tkazgan bo‘lishi shart emas”¹¹. Haqiqatan ham, mana shu manbada keltirilganidek, yozuvchi o‘zining har bir asarida – ramzni xayolot dunyosida yaratadi. U avvaldan bor bo‘lgan hayot haqiqati bo‘lishi mumkin. San’at asari shunisi bilan go‘zalki, yozuvchida mana shu xislatlar simfoniyasi yaqqol ko‘zga tashlanadi. E’tibor bergan bo‘lsangiz, N.Eshonqul hikoyalarida metafora – ramz universallik kasb etib, jamiyatning ichkarisidagi muvozanatga salbiy ta’sir ko‘rsatadigan illatlarni fosh qilishga qaratiladi. U muhabbat yoki biror bir jamiyat hayoti haqida bo‘ladimi, tush va o‘ngaro kechayotgan odamzod umrini sarhisob qilganligida qabarib ko‘rinadi. Mifopoetik unsurlar g‘arbliklarning tasavvuridan juda farq qiladi. U ba’zi hikoyalarida ismsiz qahramonlar taqdiridan so‘z yuritganligining shohidi bo‘lamiz:

“Kelinchak o‘z erini murakkab va bir kitobni o‘qiyotganday mashaqqat bilan ba’zan adashib, gumonsirab, rashk qilib o‘qirdi. Biroq oxir-oqibatda hammasiga qo‘l siltab loqayd va beparvo bo‘lib qolardi: erini endi istamay, bezillab, bundan ham beshbattar yuragi sovib ketishidan qo‘rqib, xijil va lanjlik bilan o‘qirdi. Kim biladi, u balki bu sirli va chigal kitobda erining begona ayol bilan bo‘lgan sarguzashtini ham, go‘yo har kuni ko‘rib yurgan hodisaday, go‘yo o‘ziga mutloq aloqasi yo‘qday, go‘yo yuz martalab o‘qilgan siyqa bir xatni o‘qiganday, go‘yo shunday bo‘lishi tabiiyday xotirjam va beparvo o‘qib chiqqandir. Balkim ko‘nglidagi rashk, alam va o‘zga ayolga hasad tuyg‘usi erining yuzidan bu sarguzashtni butun sir-u asrori bilan o‘qib bo‘lgachgina yo‘qolgan va o‘rnini noma’lum, o‘ziga o‘xshash mushtipar, erining xushomadlariga osongina asir tushgan ayolga achinish hissi egallangandir”¹².

Ko‘rib o‘tganimizdek, mazkur hikoyada ismsiz qahramonlar hayotiga oid shu qadar achchiq haqiqatlar muallif tasavvurida gavdalantiriladi. Unda yozuvchi bir vaqtning o‘zida ham hikoyachi, ham roviy, ham voqelikning bevosita ishtirokchisi kabi tasavvur uyg‘otadi. Adib o‘zi boshidan o‘tkazgan kechinmalardek o‘quvchiga

¹¹ Умиров Х. Адабий ижод асослари. –Самарқанд: СамДУ нашри, 2019. – В. 83.

¹² Назар Эшонқул. Ялпиз ҳиди. –Т., Шарқ, 2008. –Б.304.

tabiiy va ishonarli ramzni taqdim qiladi. Kelinchak ruhiyatida kechayotgan bu o'zgarishlar yozuvchi nuqtayi nazari bilan baholanadi. Bir umr ro'shnolik ko'rmay, rashk va azob o'tida o'tgan umri kelinchakning hayotini izdan chiqaradi. U eridan pokiza muhabbatni kutardi. Eri esa shaharlik bir olifta bilan don olishib, allaqachon uning bir vujudining parchasiga aylanganini sezib qoladi. Bu rashk olovi nafratga, hayotga bo'lgan ishonchning yo'qolishini zo'riqtirib yuboradi. Hikoyada oiladagi xiyonat va jamiyatdagi mayda tutumlar bir ayolni baxtsiz qilishgacha olib keldi. Yozuvchi bu yerda ikki inson ruhiyatida kechayotgan o'sish-o'zgarishlarni bir oila timsolida talqin qiladi. Hikoyadagi voqelik qishloqdagi bir uyda bo'lib o'tadi. Unda er va xotin orasidagi o'zaro ahillikning o'rnini rashk, zulm va adovat egallagani, bu zulmning bora-bora oila tanazzuliga olib kelayotganini, ruhiy iztiroblar izmida umr surayotgan beozor ayol matonatini tasvirlashga qaratilgan. Yozuvchi norealistik talqinda inson psixologiyasini shu qadar teran idroklaydiki, asar qahramonlari – mavhum olam ichida yashayotgandek tuyuladi. Ularning orasidagi pokiza muhabbat o'rnida shunchaki bir buyum o'rnida ko'riladigan ayol, o'zga bir inson hayotiga aylanib ketgan er qismati namoyon bo'ladi.

Kafka va Kamyu, Joys singari – odamzodning yashash mayli va shahvat maylining chegarasini buzib tashlaydi. Ramziy talqinda haqiqiy va asl basharaga duch kelasiz. O'quvchi bu yerda yozuvchiga tanqidiy munosabatda ham bo'lishi tayin. Biroq real hayotda undan ham battar chirkin illatlar mavjudligini yozuvchi pinhon tutadi. Shunday ekan, “psixologik tahlil esa inson psixikasi jarayonlarini uning fikr va hissiyotidagi turli-tuman ohanglar rivojini aks ettiruvchi, qahramon ruhiy dunyosini analitik prinsipda ochuvchi estetik kategoriyadir. Bunda N.G.Chernishevskiy yozganidek, yozuvchining “e'tibori hammadan ko'proq qanday qilib bir xil tuyg'u va fikr tufayli boshqa tuyg'u va fikrning rivoj olishiga qaratilgan; biron holat yoki taassurot natijasida bevosita paydo bo'lgan tuyg'uning xotira va xayolda paydo bo'ladigan har xil fikr ta'siriga berilib, yana va yana daydib yurishini juda qiziqib mushohada qiladi; dastlabki tuyg'u natijasida paydo bo'lgan fikrning boshqa bir fikrga olib borishini, yana undan ham nari o'tib sayr qilib yurishini, kelajak to'g'risidagi orzularni hozirgi zamon refleksiyasi bilan qo'shib yuborishini juda maroq bilan mushohada qiladi”¹³. Darhaqiqat, mana shu manbada mif va ramz, ruhiyat va uning ifoda shakllariga e'tibor qilinsa, masala mohiyati yanada oydinlashadi. Shu tariqa mifopoetik unsurlar badiiy adabiyotda o'zgaruvchan xususiyatlarga ega ekanligi ayonlashadi.

Bobning ikkinchi fasli **“Mifopoetik talqin boshqaruvida yozuvchi konsepsiyasi”** deya nomlangan. Yangi davr hikoyachiligi o'z-o'zidan shakllanayotgan adabiy hodisalarning ko'rinishi emas. Negaki, istiqlol yillarida yaratilgan nasriy eksperimentlar qaysidir ma'noda jahon adabiy-badiiy durdonalarining bir ko'rinishidir. Jumladan, talqin va tasvirda olg'a siljishlar davri bo'lgan modernistik, ya'ni norealistik izlanishlar Kafka, Kamyu, Joys singari adabiy hodisalarning ma'lum ma'noda ta'sirini ham eslatadi bizga. Ulug'bek Hamdamning hikoyalarini shu ikki jihatdan turib tahlil qilish mumkin, degan qarashga e'tibor berish lozim. Birinchisi, realistik, ikkinchisi norealistik. 2012-yil vaqtli matbuotda

¹³ Умурув Х. Рисоллар. –Т., “Фан” нашриёти, 2007. –Б.19.

e'lon qilingan "Haykallar oroli" nomli hikoyasida insoniyatning universal modeli mifologik qatlamni yangilashga uringanligi bilan ahamiyatlidir. Xo'sh, nega yozuvchi asarni bunday nomladi? Hikoyada ko'zda tutilgan maqsad nima edi? Adibning bu xildagi kayfiyati asarda ramzlarga nimalarni yashirdi? Mazkur savollar o'z yechimini asar mutolaasida namoyon qiladi. "E'tibor qilgan kishiga bugungi o'zbek modern adabiyotining: 1) san'atning ijtimoiy xizmatkorlikdan uzoqlashayotganligi; 2) muayyan qoliplarga tushmaslikka intilayotgani; 3) badiiy yaratilarning faqat san'at asarigina ekanligi; 4) san'atga o'yin (mahorat, o'zgachalik, o'ziga xoslik – originallik o'yini) deb qarash mayli kuchayganligi; 5) kinoyaga moyillik ortganligi; 6) soxta ko'tarinkilik va sun'iy chaqiriqlardan qochayotganligi; 7) ifodaning mukammalligiga intilish ortgani; 8) san'atning mafkuradan yiroq bo'lishiga urinish kuchayganligi kabi tamoyillari borligi yaqqol seziladi"¹⁴. Bu tamoyillar haqiqatan ham o'zbek nasrida anchayin takomillashib, milliy adabiyotning shakliy qiymati o'zgarishiga ma'lum ma'noda ta'sir ko'rsatib ulgurdi. Demak, Ulug'bek Hamdam hikoyalaridagi norealistik talqin o'ziga xosligining jahon adabiy-badiiy izlanishlarida allaqachon singib, katta bir tasvirlash yo'sini ekanligi o'z-o'zidan ravshanlashadi. Yozuvchining ushbu hikoyasida tasvirlar bir-biriga mantiqan bog'langan 7 ta safarni o'z ichiga oladi. Hikoyaning epkspozitsiyasiga e'tibor beraylik:

"Tinch ummoni vazmin chayqaladi. Cheksiz masofalar o'z qa'riga sir yashirgan yanglig' uzangan: ular bir vaqtning o'zida ham o'z bag'riga chorlaydi, ham undan itaradi. Hozir esa suv yuzasini qalin oqish tuman qoplagani bois qayiqdan turib qaralganda burun ostinigina ko'z ilg'aydi: ikki quloq narida nima bor, koshki bilib bo'lsa... Qayiq ichi baliqlarga liq to'lgan esa-da, baliqchilar to'rlarini yana suvga tashlagan ko'yi tek qotishgan. Tushib qolgan vaziyatlarida boshqa nimayam qo'llaridan kelardi, deysiz. Bor-yo'q qiladigan ishlari kutish bo'lgandan keyin kutishadi-da. "Kimni, nimani?", deysizmi? Quyoshni!.. Quyosh zich tuman ko'ksini chok-chokidan so'kkancha ularga yo'l ko'rsatishi kerak hali. Yo'qsa, adashib, Orolga dushman tomondan borib qolishsa, hollariga maymunlar tugul, qayiqda potirlab yotgan manavi chalajon baliqlar ham dumlarini likillatib kulib qolishlari hech gapmas. Aslida, kulish - shularning haqqi. Jonlaridan rosa alam o'tib turibdi-da o'ziyam shu tobda. Alam qayiqdagi odamlardan yetdi"¹⁵.

Mana shu tasvirda hikoya qahramonlari qalb-u shuuridagi qo'rquv va xato qilib qo'ymaslik ilinji aks etadi. Yozuvchi tasvirni atayin quyushtiradi. Quyoshni kutayotgan oqish tuman ichidagi baliqchilar bir dam ham suz olmaydi. Demak, hikoyadagi aynan ana shu kutish – insonning o'z qilmish-qidirmishlaridan totgan azoblarini qayta idroklashga zamin hozirlaydi. Hikoyada nafs va shuhrat ilinjida bir-biridan kimo'zarga yashashga odatlangan olomonning, odamlarning oxir-oqibat yetib kelgan manzillaridagi – kutishga mahkum etilganligini kuzatamiz. Xo'sh, quyoshni kutish shunchalik qiyinmi? Yozuvchi bu yerda ham ilk odamlarning yer yuzasiga rizq izlab yo'lga chiqishi, Odam ato va Momo havoning taqiqlangan mevani yeb jannatdan quvilishiga ham ishora mavjud. Yozuvchi xilma-xil ramziy ishora (kod)lar

¹⁴ Йўлдошев Қ. Ёниқ сўз. –Т.: Янги аср авлоди, 2006. –Б. 169.

¹⁵ Ҳамдамов У. "Сафар" // "Ўзбекистон адабиёти ва санъати" газетаси, 2012 йил, 20-сон.

tabiatiga, din va dunyo birligiga ham alohida diqqat qaratadi. Hikoya qahramonlari safarga – yo‘lga chiqishgan. Ularda juda katta maqsadlar bo‘lgan. Bir paytlar juda yaxshi ahillikda yashashgan. Mana shu jihatlarning o‘ziyoq, keyingi tasvirlarda muhabbatning – nafratga, odamiylikning – shon-shuhratga evrilishi asar kompozitsiyasida ochiqlana boradi. Yozuvchi voqelikni o‘z tasavvurida ko‘radi, tahlil qiladi hamda tasdiqlaydi. Tahlilning davomiyligi asarda ishtirok etayotgan ikkala kuch orasida kechadi. Demak, insoniyat erishgan jamiki yutuqlar nimanidir qurbon qilish evaziga qo‘lga kiritilayotgan moddiy dunyo havaslariga bino qo‘yish, deya ta’kidlanadi.

Adabiyotshunos J.Eshonqul qayd etishicha: “Insoniyat aqli mifdan, mifologik olamdan, ajdodlarning ilk xayoliy dunyosidan qanchalik uzoqlashib va taraqqiyot zinalaridan ko‘tarilgani sayin bu mavzu yana ham qizg‘in tus oldi. Atom, kosmik kema asri bo‘lgan XX asrda ham fizika va ximiyaning yutuqlariga qaramay, mifologiya yana adabiyotning asosiy mavzusiga aylandiki, oqibatda, “neomifologizm” degan oqim paydo bo‘lib, mif va adabiyot aloqalarini birinchi marta ilmiy o‘rganishga kirishdi. ...uning imkoniyatlarini kengaytirish, yangi pog‘onaga ko‘tarishi mifsiz sodir bo‘lmasligi ayon bo‘lgach, mif va adabiyot aloqalarini endi quruq syujetlardan emas, inson psixologiyasidan izlaydigan fan – psixoanalitika yuzaga keldi”¹⁶. Ko‘rinadiki, har qanday adabiy oqim davr manzaralarini aks ettirishga qaratilganligi ayonlashmoqda. Kafka, Kamyu singari modernist yozuvchilar talqinlarini ilmiy tekshirishda ham psixoanalitik yondashuv o‘ziga xos o‘rin tutishini yodda tutmoq joiz. Shuni qayd etish lozimki, neomifologik talqin “Haykallar oroli” (Safar) hikoyasida har bir safarda yozuvchining ijodiy konsepsiyasi ochiqlana boradi. Bir qarashda orolda kechayotgan voqelik o‘tmish va bugun manzaralarini “tushunib olish”ga yetaklaydi. Badiiylik modusi hikoyada muhabbatning nafratga, nafratning muhabbatga o‘tib turish manzaralarini tipiklashtira boradi.

Bobning uchinchi fasli “**Syujet poetikasida mifologik talqin ustuvorligi**” deb nomlangan. Adabiyot nazariyasiga oid darsliklarda qayd etilishicha: “Hayotdagi faktlar bilan yozuvchi niyatining uyg‘unlashib turib, hikoya asosini tashkil etuvchi voqea va xarakterlar tizmasi syujetdir. Yozuvchi niyatidan kelib chiqib, syujet har xil: oddiy yo murakkab bo‘lishi mumkin. Syujet hikoyada bo‘lishi shart. Biroq u unday yoki bunday bo‘lishi muvaffaqiyatlidir, deb ko‘rsatiladigan retsept yo‘q. Hikoya syujetining qurilishi uning asosida yotuvchi g‘oya va material bilan chambarchas bog‘liqdir. Hikoyada syujet ko‘pincha tugun, o‘shish, kulminatsiya, yechim kabi elementlarga ega bo‘lsa-da, har bir hikoyada ularning to‘liq ravishda mavjud bo‘lishi shart emas. Bu narsa yozuvchi maqsadidan kelib chiqadi. Asar voqeasi yuqoridagi elementlarning biridan ikkinchisiga o‘tishi syujet liniyasining harakatini belgilaydi. Syujetga qarashli ekanligini ko‘rsatib beruvchi asosiy omillardan biridir”¹⁷. Binobarin, mana shu manbaga qo‘shimcha tarzda mifopoetik talqin ustuvorlik qilgan hikoyalarda ramz va noan’anaviylik o‘zaro uyg‘unlashib, yangi bir tasvir qo‘llanmasini vujudga keltiradi. Ayniqsa, zamonaviy hikoyalarda bu hol o‘zgacha

¹⁶ Эшонкулов Ж. Фольклор: образ ва талкин. – Қарши: “Насаф”, 1999 й. –Б.141.

¹⁷ Адабий турлар ва жанрлар. – Т.: Фан, 1991. –Б.83-84.

ravishda idroklanadi. Darvoqe, syujet liniyalari yozuvchi niyatidan kelib chiqqan holda tartiblanishi qonuniy holdir. Bunday natijadorlik hikoyaning umummarkazida turuvchi asosiy g'oyaning mufassal yoritilishiga zamin hozirlaydi. Masalan, N.Eshonqul hikoyalarda Kafka va Kamyuning G'arb adabiyotida zuhur etilgan falsafiy-estetik mushohadaga boy qarashlari singdirilgan bo'lsa, I.Sulton ijodida Rumiy va Navoiy an'alarining epiklik ko'rinishi ko'zga tashlanadi. Har ikkala yozuvchi G'arb va Sharq adabiy an'alarida yuzaga kelgan qorishiq tasvir usulidan unumli foydalanganligining guvohi bo'lamiz. Isajon Sultonda qahramonlar oddiy qishloq odamlari, biroq ular ruhiyatida mehnatkash ommaning umumiy manzarasi aks etsa, Nazar Eshonqulda o'zligini topishga intilayotgan qahramonlar galereyasi qabarib ko'rinadi. Mazkur ikki jihatda ham syujet poetikasida mifologik talqin ustuvorlik qilganini anglash qiyin emas.

B.Karim e'tiroficha: "Ijod Pifagor jadvalida tizilgan raqamlar ko'paytirmasining absolyut-o'zgarmas takrori bo'lolmaydi, ijod psixologmiyasi – juda murakkab ilm. Ammo chinakam yozuvchilar ichki intuitsiyasi bilan, albatta, qandaydir rejalar tuzadi; o'zining original-individual "absolyut haqiqatlar"iga ega bo'ladi. Aks holda, asl durdonalar o'rnida oddiy voqealarning uzundan-uzoq, zerikarli stilistik bayonlari yig'ilib qoladi. Adabiy-badiiy, shakliy-struktural talqin uchun esa haqiqiy san'at obidasi, badiiy asar matni muhimdir"¹⁸. Haqiqatan ham, ijodkor qaysi yo'sinda voqelikni tartiblashtirmasin, o'zining g'oyaviy maqsadidan bir dam sira boshqa tomonga yurish qilmaydi. Uning uchun ijodiy konsepsiya tasavvur va tafakkur uyg'unligining hosilasi sifatida yuzaga chiqaveradi. Ayni shu jarayon syujet va kompozitsiyada o'z maromiga yetadi. Hikoya hozirjavob janr. Uning davr nuqtayi nazaridan ham, zamon nuqtayi nazaridan ham farqli xususiyatlari yillar mundarijasini "kashf" qilish manerasi bilan o'lchanadi. N.Eshonqulning "Sibizg'a volasi" mif-hikoyasida syujet poetikasi mifopoetik talqin qilinganini kuzatamiz:

"Nayzalari quyosh nurida yaltillab, go'yo o'z qilmishlarini falakdan yashirmoqchiday qalqonlari bilan yuzlarini to'sganicha, shaharning tosh ko'chalarini xuddi nog'ora chalishayotganday bir maromda harbiychasiga to'qillatib, saf tortib kelayotgan uchta soqchi va oqsoq darbon allamzamonlardan beri saroy uchun unut manzilga aylangan ko'chamiz boshida ko'rinishlari bilan men va navbat kutib turganlar, o'z yumushlari-yu tashvishlari bilan band odamlar, orzu va xayollarini tepkilab o'ynab yurgan bolalar, darvozalari oldida hayotning so'nggi xulosalari va saboqlari bitilgan sahifalarday bujmaygan aft-angorlari, musibat-u hasratdan bukilgan tanalarini toblab o'tirgan chollar, hammamiz, taqdir izmi bizning sartaroshxonaga va mening hayotimga qarab burilganini anglagandik"¹⁹.

Ushbu misoldan ko'rinib turganidek, yozuvchi eski mifni yangicha talqin qilganligi seziladi. Yozuvchi dunyoni titratgan Iskandar dovrug'ini, uning qismati bilan bog'liq qadim mifologiyani yangi zamon nafasi bilan tasvirlay olganki, bu yerda gapni mushohada tarozusida tortib ko'rganimizda ro'y-rost yuzaga chiqadi. Mavhum (abstrakt) tushunchalar zamirida aks etgan yozuvchi falsafiy qarashlari tamomila boshqa narsaga diqqat qilganligidadir.

¹⁸ Каримов Б. Рухият алифбоси. –Т., "Ғ.Ғулом номидаги нашриёт матбаа ижодий уйи", 2018. –Б.47.

¹⁹ Назар Эшонкул. Момоқўшиқ. –Т., Ғ.Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2019. –Б.107.

Hikoyaga tanqidiy munosabatda bo'lgan tadqiqotchi G.Sattorova shunday yozadi: "Nazarimizda, yozuvchi inson fe'lidagi azaliy qusur – bironing sirini saqlay olmaslikka diqqatimizni tortayotganday, neki bir kishiga oshkor bo'lsa, so'ng hech kim uchun maxfiy bo'lib qolmagay, demoqchidek tuyuladi. Chunki hikoyaning asosiy maqsadi ham Iskandarning sirini hatto qamish ham ko'tara olmaganligi bo'lsa, yana bir jihati uni ezgulik timsoli deb bilgan odamlar aslini bilmasliklari, ya'ni u yovuzlik timsoli ekanini anglatish istagi sartarosh shuurini qamrab olganligidir. Bu bilan u insoniyatni falokatdan saqlab qolishga urinadi, go'yo. Zotan butun boshli mamlakat fuqarolari Iskandarni Axuramazda (Yaxshilik xudosi)ning bolasi deb biladi. Sartaroshni esa odamlarga haqiqatni aytish istagi azoblaydi"²⁰. Bu fikrlar bizningcha, bir yoqlamadek tuyuladi. Maqolani o'qigan mutaxassis hikoyada yozuvchining ijodiy konsepsiyasida nima "sir yashirin" ekanligini to'liq anglay olmagan. Hikoyaning mavzusi, uning syujetida aks etgan hayotiy voqelikning ramzlarga yashiringanini tushunish uchun kamida yozuvchi ruhiyatiga teran kirib borish zarur. Shunday ekan, G.Sattorovanning mulohazalariga qo'shilib bo'lmaydi. Tahlil matn bo'ylab sayr qilar (R.Bart) ekan, yondashuvda xolislik bo'lmog'i lozim. Ana shundagina asar poetik olami, pafosi, yozuvchi ijodiy dunyosi, fikr-mulohazalari, ichki iztiroblari to'laqonli ochib boriladi.

Tadqiqotning uchinchi bobi "**Norealistik hikoyalarda makon va zamon birligi**" deb nomlanadi. "**Adabiy zamonning xarakter yaratishdagi o'rni**" nomli birinchi faslida hikoya arxitektonikasida, syujet liniyalarida xarakterni va undagi o'sish-o'zgarishlarni muvofiqlashtirib turishga keng imkoniyat tug'dirishi badiiy xronotopning qay tariqa ishlangani bilan ham belgilana boshlangani haqida nazariy mulohazalar yuritiladi. "Metamorfoza (evrilish), asosan, insoniy evrilish – o'zlikni anglash (asosan insonning o'z-o'zini anglashi) bilan teran va mustahkam bog'lanishga ega. Ayniqsa, bunday bog'lanish xalq ertaklarida aniq saqlanib qolgan. Ertakdagi odam obrazi – ertakka xos barcha rang-barangliklari bilan doimo evrilish va o'zni anglash (o'z navbatida, har xillikni emas, balki ushbu motiv konkretligini ta'minlovchi bo'lak sifatida) motiviga quriladi. Evrilish – o'zni anglash motivlari bir odamdan butun insoniyat dunyosigacha, tabiatga, insonning o'zi tomonidan bunyod etilgan narsalarga o'tadi. Inson obrazida o'zni anglash va evrilishlarni ochib tashlaydigan xalq ertaklariga xos zamon haqida shunday deyishimiz mumkin"²¹. Binobarin, badiiy xronotopning zamon bilan bog'liq tipida ikki jihatni ko'rishimiz mumkin: yozuvchi yashagan davr va uning ilg'or tendensiyalarining jamiyat hayoti bilan bevosita bog'liqligi, ikkinchidan, makonning aks etish qatlamlarida tarixiy qamrovning idrok etilishi, joylashish tartibi, geografik yaxlitligi, odamlarning o'zaro munosabatlari kiradi. Nazar Eshonqul va Ulug'bek Hamdam, Isajon Sulton hikoyalarda folklor va mifologik qatlam orqali yangi zamon insoni obrazlarining tajassumini kuzatish mumkin. Ayniqsa, XX asrning 70-yillarida hukm surgan va insoniylashmagan jamiyat ichkarisida sodir bo'layotgan turli xil voqeliklar mana shu jihatlarni o'z ichiga oladi. Qayd etish lozimki, insoniylashmagan soxta shiorlar,

²⁰ Сатторова Г. Чўпчакдан не муддао? // "Ёшлик", 2012 йил, 9-сон. –Б.23-24.

²¹ Бахтин М. Романда зamon ва xронотоп шакллари. –Т.: "Академнашр", 2015. –Б.77.

yolg'on-yoshiq ma'lumotlar bilan nafas olgan jamiyat alal oqibatda tanazzulga yuz tutganini anglash qiyin emas.

Nazar Eshonqulning "Haykal" nomli hikoyasida badiiy xranotop yozuvchining xarakterni shakllantirish bilan bir qatorda eski va yangi zamon orasidagi tafovutni, insoniy o'zlikni anglashda yo'l qo'yilgan mafkuraviy tazyiqlarning, shuhratparastlik bilan kun kechirayotgan odamlar orzu-umidlarining yaqqol namunasi sanaladi. Soxta obro' va shon-shuhratga burkangan odamlar xakteri ushbu hikoyada o'ziga xos norealistik talqin rang-barangligini namoyish qiladi:

"N. kekxa shoirnikiga borganda unikida akademik va N. bilan doim raqobatlashib yuradigan haykaltarosh T. ham bor edi. Shoir N.ni ochiq chehra bilan kutib oldi. Akademik ham uning kaftini qaltirayotgan, xuddi o'zi kabi mana to'kilaman, ana to'kilaman deb turgan qaltiroq qo'llari bilan qisib, kuch-quvvat tilab qo'ydi.

– Bu hayotimizdagi katta voqea, - dedi u. – Sizga olim va shoirning haykalini topshirishning o'ziyoq yuz berajak katta o'zgarishlardan darak beradi. Men bundan xursandman.

– Men ham shunga umid qilyapman. Milliy qahramonni qo'ya turaylik, u yasalishi kerak. Ammo rahbar shoir va olimning haykalini shahar o'rtasiga o'rnatishni buyurdimi, demak, yaqin kunlarda ziyolilarga katta imtiyozlar beriladi, shu paytgacha bo'lgan e'tiborsizlik va loqaydlik shu bilan yakun topsa kerak. Rahbar nihoyat o'z xatosini tushungan, ijodkorlarsiz, olimlarsiz taraqqiyot bo'lmaydi, - dedi kekxa adib yoshlangan ko'zlarini kir ro'molchasiga artar ekan.

T. bunday katta mas'uliyatli ish aynan N.ga topshirilganidan hasadi kelayotganini yashirib o'tirmadi.

– Shuning uchun ham sizlarga hamma gap haykalning qanday chiqishiga bog'liq deyapman-da. Agar xudo ko'rsatmasin, ish pachava bo'lsa, unda ijodkorlarga bo'lgan munosabat yana yomonlashadi"²².

Ushbu parchadan ko'rib o'tganimizdek, XX asrda mafkuralashgan san'at va adabiyotning vakillari o'tgan zamonlardan kelayotgan odamlar qiyofasini, har bir insonning o'zligini anglab yashashi muhimligini qiyoslashga bag'ishlanganligi bilan e'tiborga loyiqdir. Mazkur hikoyada iste'dodning xor-u zor bo'lishi va soxta shon-shuhrat qattiq tanqidga olinadi. O'zidan har qanday vatanparvar yasab olgan ijodkorlarning o'zaro munosabatlarida ham qandaydir g'ayirlik ufurib turganini suhbatlaridan bilish qiyin emas. Davr o'zgargani bilan 70 yil davomida miyasiga singdirilgan soxta va yolg'on shiorlar, mafkuralarning ayni shu mustaqil va erkin jamiyat qurish asnosida yana ko'zbo'yamachilikka yo'l qo'yishi o'ziga xos tarzda talqin qilinmoqda. Nazar Eshonqul mana shu hikoyada badiiy xranotopning zamon va makonga bog'liq jihatlarini uch-to'rtta xarakterlar asosida haqqoniy ochib beradi. Soxta tuzum kirdikorlarining fosh bo'lishi, soxta obro' ketidan borib, har qanday pastkashlik, o'g'rilik, xiyonatni ham qilishdan toymaydigan qatlam yuziga kuchli drammatizm yo'sinida shapaloq tortib yuborgani sir emas! Yozuvchi birgina haykal timsolida eski va yangi davr odamlarida paydo bo'layotgan munofiqlikning yaramas illat ekanligini ko'rsatishga e'tibor qilganini bilish qiyin emas. Ayni shu jihatlar

²² Назар Эшонкул. Момоқўшиқ. –Т.: “Ғ.Ғулум номидаги нашриёт матбаа-ижодий уйи”, 2019. –Б.157-158.

adabiy zamonning og'riqlarini, qaltis bir oraliqda haqiqiy ijodkor o'z iste'dodini namoyon etolmayotganini tasvirlashi fikrimizning yorqin dalilidir.

Bobning ikkinchi fasli **“Adabiy makonning kompozitsion yaxlitligi”** deb nomlanib, unda inson faoliyati bilan bog'liq badiiy asarda kompozitsion tamoyil talqin rang-barangligining yuzaga chiqishida muhim ahamiyat kasb etishi talqin qilinadi. Dunyo adabiyotshunosligining joriy kundagi istiqbolida XX asr boshlarida yuzaga kelgan jamiyat hayotidagi keskin ziddiyatlar, inqilobiy siljishlar, evolyutsion taraqqiyotni aylanib o'tgan davr manzarasani tubdan isloh qilishga zamin hozirladi. “Kant, Gegel, Shopengauer, Kerkegor, Nitshe kabi mutafakkirlarning og'zaki ijoddagi timsollarga yangicha sharhlari va undagi hikmatlarni anglashga bo'lgan qarashlari butun boshli ijtimoiy fikrni g'alayonga keltirdi, bu qarashdan suv ichgan barcha soha, jumladan, adabiyot ham yangi taraqqiyot bosqichiga ko'tarildi. Shunga ko'ra, aytish mumkinki, qadimgi miflar talqini shunchaki adabiyotshunoslikning bir yo'nalishidagi tadqiqot emas, agar bu tadqiqot og'zaki ijod ortida yashirinib yotgan mohiyat-u hikmatlarni ochishga qaratilgan bo'lsa va buning uddasidan chiqolsa, mazkur izlanishlar yolg'iz olimlarning emas, ayni paytda, badiiy tafakkurning ham muhim yutug'i hisoblanadi”²³. Haqiqatan ham, ayni shu yo'nalish adabiyotdagi mifologik obrazlarning yangicha ifodasidagi uslubiy-shakliy izlanishlarni, syujet va kompozitsion yaxlitligini, badiiy xronotopning o'ziga xos jihatlarini tubdan o'zgarishiga zamin tayyorladi. Badiiy asarning arxitektonikasida zuhur etilgan har qanday timsollar yozuvchi ko'tarib chiqqan ulug'vor g'oyani tashishga, olomonchilik kayfiyatidan qutulishga, chaqiriqlar, shiorlar, yolg'on axborotlarni to'g'ri tushunishga yetakladi. Asl adabiyot sog'inchi bilan yashayotgan botiniy ehtiyoj, orzu va xayol orasidagi aniq bir mezonlarning hal qilinishiga turtki bo'ldi. Kafka va Kamyu, Prust, Joys va shunga o'xshagan metamorfozalar yaratishga moyil yozuvchilar poetik izlanishlarida ayni shu jihatlarining rang-barang jihatlarini uchratishimiz mumkin. Yangi asr sari odimlayotgan ramzlar qurshovida o'zining kimligini bilishga oshiqayotgan odamlar obrazi har bir adib izlanishlarida o'zgarib, murakkablashib, sayqallanib borildi. Demak, chinakam ramziy-majoziy talqin kompozitsion yaxlitligi adabiy makonning ajralmas bir halqasi ekanligi yuqoridagi fikrimizning yorqin dalilidir.

Badiiy xronotopning kompozitsion yaxlitligi haqida so'z borganda, avvalo, matnning qay tariqa yuzaga chiqishi, yozuvchi konsepsiyasining o'ziga xosligi, mifologik talqin birikuvining zamonaviyligi idrok va tasavvur yig'indisi singari ko'plab komponentlar shartlanganlik hosilasi bilan izohlanadi. Ulug'bek Hamdam badiiy izlanishlarida norealistik talqin birikuvi Kafka va Kamyu singari darajama-daraja rivojlanib boradi. O'quvchi kutilmagan joyda o'zining mushohadalari bilan yolg'iz qoladi. Javobsiz savollar qarshisida yozuvchining “nima demoqchiligini” anglashda qayta-qayta mutolaa qilishga majbur bo'ladi. Bunday paytda yozuvchi to'qib chiqarayotgan mif yangi zamon mifi kabi qabul qilinadi. “Bir piyola suv” nomli hikoyasini tahlil qilib ko'ramiz:

“Menga vazifa yuklatilgan edi. Biroq nima uchun aynan menga? – bilmayman. Kim va qanday vaziyatda topshiriq berdi? – buni ham negadir eslay olmayman.

²³ Назар Эшонкул. “Мен”дан менгача. –Т.: Академнашр, 2014. –Б.89.

Yodimda qolgani – nimadir ortilgan, ikkita ot qo‘shilgan aravani shom tushgunga qadar manzilga eltishim zarur. Nega endi shomga qadar? Bu savolning javobi ham menga qorong‘i... Yana “yo‘lda chalg‘imasang bas, yukni manzilga o‘z vaqtida eson-omon eltasan”, deyilgani hammasidan oshib tushdi: jumboqmisan jumboq!

Tavba, o‘zinga ham qiziq bu ish. Shuncha zamonaviy ulov turganda, almisoqdan qolgan aravaga nima bor? Unga ortilgan yuk-chi? Nima u o‘zi? Ustiga allaqanday matolar tashlangan, o‘ralgan, chirmalgan. Ammo bori – shu. Ortig‘ini istasam ham sizga aytolmayman.

Endi bosh ko‘targan boboquyosh navqiron tanimga iliq nurlarini sochadi. Otlar bir maromda yo‘rtib bormoqda. Ahyon-ahyonda jilovni qimirlatib qo‘yaman, shuning o‘zi farosatli hayvonlarga kifoya – imillash yo‘q. Namuncha esli bo‘lmasa bular? – deyman o‘zinga o‘zim. – Xuddi vazifadan boxabardek! Tavba...”²⁴.

Mana shu hikoyada yozuvchi Ulug‘bek Hamdam – yangi bir tush mifologiyasini ilgari suradi. Unda atigi bir piyola suv ilinjida har bir qilayotgan ishi insonning botini va zohirini tadqiq qilib beradi. O‘sha bir piyola suvning ramziy hosilasi o‘laroq, yo‘lga chiqqan har bir odamning – hayot taqdiri o‘zidagi mavjud bilimlar, ehtiyojlar, nafs va uning tarbiyasi bilan bog‘liq ekanligiga mantiqiy urg‘u berganligida ko‘rinadi. Shuni qayd etish lozimki, o‘quvchi hikoya qahramoni bilan ko‘plab sinoatlarni boshidan o‘tkazadi. Ayniqsa, suv bilan bog‘liq manzaralarni o‘qiganda beixtiyor ot aravaning jilovini ushlagan qahramonga juda achinadi. Uning halolligi va to‘g‘riso‘zligidan zavqlanadi. Lekin omad kelganda undan ketayotgan sabr orqasidagi go‘zal hikmatni anglashda chuqur mushohadaga beriladi. Haqiqatan ham – vazifa nima edi? Yangi davr hikoyachiligidagi ramziy-majoziy talqin endilikda o‘quvchini noma‘lum bir sarhadlar sari yetaklaganida qabarib ko‘rinadi. Hikoya qahramonining nima ish bilan mashg‘ul bo‘lishini o‘zi ham tuzukroq bilmaydi. Undan hikoya xotimasigacha – suv ortilgan ko‘zalarni olib ketayotgan aravadagi buyumlar “sir” tutiladi. Ehtiyoj – hayot suvi! Chanqoq bois u o‘zining maqsadlarining oxirida nimaga qaratilganligini anglab qoladi. Inson umri va uning bajarayotgan har bir harakatida, izlanishlarida, tasavvur va tafakkur orqali zabt qilayotgan cho‘qqilarida yuz berayotgani sarhisob qilinadi. Shuni qayd etish lozimki, hikoyaning kompozitsiyasida adabiy makon kecha-bugun-ertaga tarzida ro‘y beradi.

Hikoyada yo‘l xronotopining kompozitsion tuzilishi. Badiiy asar kompozitsiyasida xronotop shakllari yozuvchi poetik izlanishlari samarasi o‘laroq ranginlashadi. Nazar Eshonqul, Ulug‘bek Hamdam, Isajon Sulton kabi yozuvchilarning badiiy izlanishlarida yo‘l va yo‘lovchi obrazlar haqiqatan ham turfa ziddiyatlarni boshidan o‘tkazib, manzil sari odimlaydi. Folklor an‘analarning norealistik talqini nomlari zikr qilingan adiblar ijodida o‘ziga xos tarzda bo‘y ko‘rsatayotganini e’tirof etish joiz. Ulug‘bek Hamdam “Bir piyola suv” hikoyasida bosh qahramonning – hayot mohiyatini anglab yetishida turli xil sinovlarni boshidan o‘tkazadi. U izlab chiqqan manzil esa aslida hayotdir.

Mazkur bobning uchinchi fasli “**Badiiy xronotopda ruhiy tahlil va yozuvchi tafakkuri uyg‘unligi**” deb nomlangan bo‘lib, norealistik hikoyalarda badiiy

²⁴ <https://ziyouz.uz/ozbek-nasri/ulugbek-hamdam/ulugbek-hamdam-bir-piyola-suv-hikoya/>

xronotopning qayta ishlanganlik darajasi badiiy psixologizm bilan ham chambarchas bog‘liq ekanligini tayin etadi.

Shu bois, noan’anaviy tasvir prinsiplariga ega F.Kafka, J.Joys, A.Kamyu, M.Prust kabi yozuvchilar ayni ruhiyatga va uning tasviriga ramz orqali tashrif buyurishni ma’qul ko‘rganlar. Bu an’ana keyinchalik o‘zbek adabiyotiga jiddiy ta’sir ko‘rsatib, milliy koloritni saqlagan holda shaklni mazmundan, mazmunni shakldan ayro tasavvur qilib bo‘lmaganidek, shu zaylda ish ko‘rishni birlamchi masalalar qatorida hisoblashmoqda.

Adabiyotshunos G.Sattarova qayd etishicha: “Isajon Sulton adabiyotimizda o‘z o‘rni va uslubiga ega, bugunning peshqadam yozuvchilaridan sanaladi. Adibning bir qancha romanlari va hikoyalari allaqachon o‘quvchilar tomonidan iliq kutib olinib, o‘z bahosini olgan. Uning ba’zi hikoyalari haqida xorij matbuotida ham fikr-mulohazalar bildirilgan. Isajon Sulton asarlarini o‘qirkansiz, ularning tasvir markazida voqealar emas, inson, uning ruhiy holati turishini anglaysiz. Yozuvchining “Tafakkur” jurnalida chop etilgan “O‘rmondagi kulba” nomli hikoyasi ham o‘ziga xos asarlardan biri sifatida e’tiborimizni tortdi... Badiiy asarda qahramonning ichki konflikt imkoniyatlarini yozuvchi Xurshid Do‘stmuhammad ruhiy kolliziyalar, shaxs va holat, shaxs va muhit, shaxs-hozir-o‘tmish, orzu-armon-pushaymon-umid oralig‘idagi botiniy ziddiyatlar, deb tasniflaydi. Ushbu tasniflarga asoslanadigan bo‘lsak, hikoya butunlay qahramonlarning ichki olami ziddiyatlaridan tashkil topgan. Hikoya an’anaviy syujet va kompozitsion qurilishga ega emas. Adib inson qalbining sirli, tushunish mushkul bo‘lgan jihatlarini turli rakurslarda tasvirlaydi. U “Muqaddima”, “Yerto‘lada”, “Chorlov”, “Kelgan kim”, “Xotima”, “Roviy so‘ng so‘zi” deb nomlangan bo‘limlardan tashkil topgan. Hikoya, asosan, qahramonning o‘z-o‘zini taftish qilishi voqealari asosiga qurilgan”²⁵. Binobarin, yozuvchi ushbu asarida ota, ona va o‘g‘il munosabatlaridagi muhim bir bo‘g‘inni qalamga olgan. G.Sattarova fikr-mulohazalariga qo‘shimcha tarzda shuni aytish lozimki, inson har qanday vaqtda, vaziyatda, holatda va boshiga tushgan ko‘rguliklarni mardonavor yengib o‘tishda – tafakkur qilishga intiladi. Biz ko‘rib turgan olam, aslida hislar olami. Uni qalb bilan anglab, tafakkur ila baholaymiz. Tafakkur va tasavvur uyg‘unligi natijasida olam sirlariga, yashash va mavjudlik jumbog‘iga ma’lum ma’noda javob topgandek, o‘z-o‘zimizga tasalli beramiz. Hikoya taskin va tasalli orqali o‘zlikni, ayniqsa, botiniy tug‘yonlarni tartiblashtirib olishimizni, munosib nom bilan nomlashimizni, go‘zal bir qiymat hosil qilishimizni bilishdan va o‘zgalarga ham shuni yuqtirishdan iboratligi ayonlashadi. Shunday ekan, “O‘rmondagi kulba” ong osti tug‘yonlarimizning uyg‘onishi, yashash zavqi va shijoatini bir butun holda tasavvur qilishimizga keng imkon beradi. Ramz bu yerda – insonning “men” va uning olamidir. Aynan uch xil epizodda har bir nafas olayotgan odamning yashash prinsiplari aks-sado beradi:

“Eshik ochiq ekan.

Ko‘pdan beri bu yerga inson qadami yetmagan bo‘lsa-da, egalari qaygadir ketganiga go‘yo bir-ikki hafta bo‘lganday, nazarimda. Chunki ashyolarning bari o‘z o‘rnida, ammo xiyol chang qoplabdi. O‘ng tomondagi javonlar yopiq, ichida uy

²⁵ <https://saviya.uz/hayot/nigoh/tafakkur-uygunligi/?imlo=k>

egalarining narsalari bo'lsa kerak. Deraza yonida kattagina stol, ustida eskiroq kompyuter, qalam-qog'oz yonida so'liy boshlagan chechaklar ham bor, har holda, uy bekasi noziktabiat ayol shekilli. Derazaga och-sarg'ish gulli parda tutilgan. Borib, tavaqalarni ochib yubordim, o'rmonning turli islarga to'la toza havosi uy ichini to'ldirdi. Katta jigarrang tusli pechka ustida og'ir cho'yan choynak, yerda esa besholtita qarag'ay sarjini, gugurt donalari sochilib yotibdi.

Chap tomonda eshigi yopiq xonalar bor ekan. Bolalar xonasi bo'lsa, ehtimol. Balki mehmonxonadir?

Ha, shinamgina, ammo qanchadir muddat qarovsiz qolgan bir uy.

Endi shu uyning yerto'lasiga tushishim kerak.

Yerto'lalarni yoqtiravermayman. Nimqorong'i, har turli keraksiz ashqoldashqollar betartib tashlab qo'yilgan, bir oz zax isi kelib turadigan joy tasavvurimda jonlanadi. Ba'zilar havo almashishi uchun tuynuklar ham ochishadi, chunki tuynuklari bo'lmasa, yerto'laning havosi og'ir bo'lib qoladi.

Nariroqda pastga tushiladigan eshik ochiq. Zinalari taxtadan, yorilib-yorilib ketibdi. Tushsam, aytganimday, nimqorong'i bo'lsa kerak.

Eshigi yoniga kelib, pastga qaradim.

Beshta yoki oltita pillapoyasi bor ekan.

Tusha boshladim, ko'ndalang taxtalar zalvorimdan g'ichirlar edi"²⁶.

Hikoya muqaddimasi – o'g'ilning o'rmondagi kulbaga kelib qolishi bilan boshlanadi. Ayni nega yozuvchi o'g'ilni tanladi. Nega ota yoki onani emas? Savol tug'ilishi tabiiy. Chunki yozuvchi o'g'il tafakkuridagi yoshlikning, uning beg'uborligi, bolaligi, zavq-u shavqlarga, oydin orzularga to'la bir ajib saodatmand lahzalarning ko'pligi bilan boshqacha mohiyat kasb etishiga ishora mavjud. Ayniqsa, yozuvchi "atrofi zim-ziyo" va buyumlarning changi artilmaganiga jiddiy ma'no yuklaydi. Inson tafakkuri bilan bog'liq tushunchalarni bola va ota, ona nazdida kodlashtiradi. Ular kulbadagi buyumlar va u yerdagi hayot bilan o'z o'tmishi va yashab o'tgan manzil-u makonlardagi adashishlarini, ota-onasini, yaqin birodarlarini ko'p eslaydi. Kulba – o'tmish, tarix va odamzodning bosib o'tgan yo'llaridagi aniq makoniy bir xilqat ekanligi ma'lum bo'ladi. Bu yerda yozuvchi – xotira xronotopidan unumli foydalanadi. Uchrashuv motivlarida yozuvchi yolg'iz o'z-o'zi bilan kurashishi, azim hayot qonuniyatlariga o'zi qiymat berishi haqqoniy ifodasini topgan. Inson dunyoga kelarkan, o'zi yashab o'tgan manzil-u makonini to'g'ri anglamasa, qiyinchiliklar shu tariqa bo'lishini, hech bir odamning taqdiriga tashqaridan birortasi kelib aralashishga haqqi yo'qligini ko'rsatishga jiddiy ma'no yuklaydi. Mana shu tariqa "O'rmondagi kulba" negizida xotiralar, iztiroblar, yo'qotishlar-u topishlar, xatolardan har kim o'zicha xulosa chiqarishga oshiqadi.

²⁶ <https://ziyouz.uz/ozbek-nasri/isajon-sultonov/isazhon-sulton-rmondagi-kulba-ikoya/>

XULOSA

1. Norealistik talqin birikuvida poetik matn hamisha ramz va metaforaga asoslanadi. Yakka qalb bag'ridan chiqayotgan haroratli so'z – ramziy-majoziy yo'sinda kishilar xarakterini kashf qilishga yo'naltiriladi. Bunga misol Joys, Kafka, Kamyu, Prust singari aql tafakkur sohiblari asarlarini keltirish mumkin. Ular boshlab bergan traditsiya bugun o'zbek adabiyotida yuzlab nodir asarlarning yuzaga kelishiga katta sharoit hozirladi.

2. Norealistik hikoyalarda uslublararo sintez hodisasi shundan iboratki, yozuvchi ramziy talqin boshqaruvini o'zidan oldingi salafalari kabi mavhum bir tushunchaga joylashi bilan belgilanadi. U.Hamdam, N.Eshonqul, I.Sulton badiiy izlanishlarida bir-biriga sira o'xshamagan ramziy-majoziy yo'sinda qayta talqin qilinganini ko'ramiz. Ayniqsa, Kafka va Kamyu singari adiblar adabiy ta'sirini unutmazlik lozim. Ularning tasvir metodologiyasi o'zbek adiblarini hayratlantirgani, milliy ruhiyatga daxldor masalalarni o'zbekona ifodalay olgani bilan o'lchanadi.

3. Hikoyada davr ruhiyati aks etgan jihatlar ko'p. 60-yillarda ko'zga tashlangan "bir xillik" 90-yillarga kelib tubdan modernizatsiya qilindi. Talqin va tasvirda modernistik ohang kuchaygani, Ulug'bek Hamdam va Isajon Sulton hikoyalarida rang-baranglashgani fikrimizning yorqin dalilidir. Shuni qayd etish lozimki, davr ruhiyatiga alohida to'xtalgan adiblar G'arb-u Sharq an'alarini ham sintez qilgani ayonlashadi. Chunonchi, har qanday badiiy asarda aks etayotgan inson obrazi mavjudlik jumbog'ini anglashga keng imkon beradi. Ayni shu tamoyil davr hikoyachiligi haqida umumiy manzara hosil qilishga sharoit hozirlaydi.

4. G'arb badiiy tafakkuri hamma zamonlarda ham o'zbek adabiyotiga adabiy ta'sir qilgan emas. XX asr boshlaridagi Cho'lpon, Qodiriy, Oybek, Qahhor, G'.G'ulom badiiy izlanishlarida G'arb adabiy-estetik tafakkurining roli benihoya kattadir. Ular realizm qoidalarini chetlab o'tolmadi. Haqiqiy san'atda – odamlar uchun bir xil mezon bo'lishi lozim, degan aqidani unutmadilar. Biroq 90-yillarga kelib Xurshid Do'stmuhammad, Erkin A'zam, Xayriddin Sultonov kabi realist yozuvchilarga, Nazar Eshonqul, Isajon Sulton, Ulug'bek Hamdam singari modernistlarga G'arb adabiy-estetik tafakkurining ta'sirini ko'p hollarda his qilamiz. Ular ramziy-majoziy talqinni o'zbekona ruhda, milliy qahramonlarimiz taqdiri timsolida yuzaga chiqargani yaqqol isbotidir. Barcha yozuvchilar ayni shu prinsipdan sira uzoqlashmagan holda ish ko'rganlar.

5. Adabiy taqlid – iste'dodni so'ndiradi. Tan olish kerak, Nazar Eshonqulda Kafkaga, Ulug'bek Hamdamda Kamyuga, Isajon Sultonda – turk adabiyoti vakillariga ochiq-oshkor ergashish seziladi. Biroq uslubiy jihatdan o'zlashtirilgan matn semantikasida bular yaqqol ko'zga tashlanadi. Ayniqsa, Nazar Eshonqulning qahramonlari bosh harf bilan berilishi Kafka talqinlarini yodimizga soladi. Bu eksperiment tarzida qabul qilindi. Adabiyot bilan bog'liq gazeta va jurnallarda ochiq-oydin tanqid qilindi. Lekin yozuvchi o'zining qarashlariga sodiq qolgan holda, tanqidni to'g'ri qabul qilib, adabiy ta'sirning kuchi va mezoni bilan baholashga moyillik sezdi. To'g'ri, ayrim yozuvchilar ayni shu yo'sinda, o'zlarining tasvir prinsiplariga ega bo'lgani hech kimga sir emas!

6. Mifopoetik talqin boshqaruvida yozuvchi konsepsiyasining roli benihoya kattadir. O'zbek adabiyotida mifopoetik talqin samarasi o'laroq yuzaga kelgan o'nlab

shedevr hikoyalarni keltirish mumkin. Ularning har birida xilma-xil ifoda uslublarining dialektik aloqasini ko‘ramiz. A.Navoiy yaratgan epik ko‘lamdor dostonlaridagi kabi universal mifologiya XX asrda G‘arb adabiyotida paydo bo‘lgan bo‘lsa, ayni ifoda xususiyatlari bilan o‘zbek adabiyotiga katta ta‘sir ko‘rsatgani ayni haqiqatdir. Tadqiqotda mifologik voqelik ramziy-majoziy yo‘sinda ifodalangani, ularning mualliflari G‘arbdan ko‘proq ta‘sirlanganini e‘tirof etish lozim. Negaki, har qanday tasvir eskizlarida olam va odamning taqdiri bilan bog‘liq talqinlar qabarib ko‘rinishi tabiiy. Ayni shu mezon mifopoetik talqin o‘lchovining ham xiyla kengaytirishga sabab bo‘ladi.

7. Norealistik hikoyalarda badiiy xronotop kecha-bugun-ertaga tarzida namoyon bo‘lishini inobatga olsak, masala mohiyati yanada tiniqlashadi. Hikoya kompozitsiyasida badiiy xronotop bir vaqtning o‘zida ham syujet, ham xarakter, ham ruhiy tahlil masalalariga aniqlik kiritishga zamin hozirlaydi. Falsafiy-estetik qamrovning teranlashuvi, muallif pozitsiyasi ustuvorligi ayni shu jihatlarni kashf qilishga yo‘naltiriladi. Mana shu jihatlarni mohiyat-e‘tibori bilan syujet va kompozitsion yaxlitlik sintezining yuzaga chiqishida muhim omil hisoblanadi. Kafkadagi ruhiy tahlil bilan Nazar Eshonqul tasvirlarida o‘zaro yaqinlik mavjud. Inson qalbidagi iztiroblarni chuqur tahlil qilish, shu yo‘sinda o‘z g‘oyasini amalga oshirishga imkon tug‘dirishi sinalgan hodisalardir.

8. Badiiy makonning kompozitsion yaxlitligi haqida so‘z borganda, avvalo, shuni qayd etish lozimki, har bir san‘at asarida tuzilish va o‘ziga xos tasvir estetikasi mavjudligini unutmaslik muhim. Chunki hikoya arxitektonikasida so‘z – obraz, so‘z – ruhiyat, so‘z g‘oyadir. Bularning birligi yozuvchi o‘z oldiga qo‘ygan kriteriyalarning muvofiqligini ta‘minlaydi. Ayni shu jihatlarni yozuvchi ijodiy konsepsiyasidagi rang-baranglikni kashf qilishga yetaklaydi.

9. Badiiy tahlil estetikasida falsafiy-ruhiy tahlil o‘ziga xos o‘rin egallaydi. Shuni qayd etish lozimki, inson hamma zamonlarda bir-biriga mutanosib bo‘lgan tuyg‘ular, kechinmalar bilan umr kechiradi. Muhabbat va nafrat, ayriliq va visol kabi o‘lmas abadiy mavzular chegarasida kechadigan hayot o‘zlikni anglash uchun bir pog‘onadir. Yaratganni anglash va unga itoatda bo‘lish Kafka konsepsiyasida ham, Nazar Eshonqul, Ulug‘bek Hamdam, Isajon Sulton badiiy izlanishlarida ham yaqqol namoyon bo‘ladi. Biroq har biri bir olamning zarrasi yanglig‘ inson faoliyatini jiddiy tadqiq qiladi. Ayni shu jarayonda ruhiy tahlil o‘zining metamorfozasini namoyish qiladi. Bir qarashda juda jo‘n va oddiy tuyulgan matn semantikasida hayot strukturasi qabarib ko‘rinadi. Inson o‘zining hamma zamonlarda kayfiyat va holatiga intilib yashashi qonuniy hodisalar sirasiga kirishini taqozolaydi.

**SCIENTIFIC COUNCIL AWARDING SCIENTIFIC DEGREE
PhD.03/30.12.2019.Fil.55.02 AT URGENCH STATE
UNIVERSITY URGENCH STATE UNIVERSITY**

ALLANAZAROVA FERUZA KARIMBERDIEVNA

**THE POETICS OF NON-REALISTIC STORIES
IN CONTEMPORARY PROSE**

10.00.02– Uzbek literature

DISSERTATION ABSTRACT

of the doctor of philosophy (PhD) on philological sciences

Urgench – 2023

The theme of the dissertation of doctor of philosophy (PhD) was registered at the Supreme Attestation Commission at the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan under № B2021.4.PhD/Fil22064.

The dissertation has been prepared at Nukus State Pedagogical Institute.

The abstract of the dissertation is posted in three languages (Uzbek, English and Russian (resume)) on the scientific council website www.urdu.uz and on «Ziyonet» Information and Education portal website www.ziyonet.uz.

Scientific consultant:

Yo'ldoshev Boynazar,
Doctor of philological Sciences, professor

Official opponents:

Orazimbetov Quanishboy Kelimbetovich,
Doctor of philological Sciences, professor

Sariyev San'at Matchonboyevich,
Doctor of philological Sciences, docent

Leading organization:

**Karakalpakstan Department of the
Academy of Sciences of the Republic of
Uzbekistan**

The Defense of the dissertation will take place on «21» September 2023, at the meeting of the Scientific Council PhD.03/30.12.2019.Fil.55.02 at Urgench State University (Address: 220100, H. Alimdjan Street, 14. Urgench city. Phone: (+99862) 224-66-80; fax: (+99862) 224-67-00; e-mail: fil-ik.urdu.uz.

The dissertation can be reviewed at the Informational Resource Center of Urgench State University (registered under No. _____). (Address: 220100, Kh.Alimdjan Street, 14. Urgench. Phone: (+99862) 224-67-00), (+99893) 9227734; e-mail: arm@urdu.uz.

The abstract of the dissertation is distributed on «8» September 2023.

(Protocol at the register № 22 on «8» September 2023).



Z.D.
Z.D.Do'simov
The Chairman of the Scientific Council awarding the Scientific Degree, Doctor of Philological Sciences, professor

S.S.
S.S.Atajanov
Scientific Secretary of the Scientific Council on Award of Scientific Degrees, Doctor of Philological Sciences (PhD), docent

A.D.
A.D.Urazboev
Acting chairman of the Scientific Seminar of the Scientific Council on Award of Scientific Degrees, Doctor of Philological Sciences, professor

INTRODUCTION

(Annotation of the Dissertation of Doctor of Philosophy (PhD))

Relevance and necessity of the dissertation topic: In world literature, one of the sub-genres of the epic type, on the basis of the research conducted on the poetics of the story, there is a variety of interpretations. The poetics of non-realistic stories, created on the border of tradition and non-tradition, testify to the emergence of a diverse culture of expression in the literary studies of the new era. The in-depth interpretation of the inner dreams, goals and aspirations of a person in every way creates a wide opportunity to study the convergence of modernist and postmodernist expression, which has taken root in the world today. Therefore, it is important to theoretically justify the fact that the balance of the material and spiritual world is manifested in the way of knowing the world and man in the psyche of a creative person.

In the process of alienation of various forms of non-realistic expression in the literature of the world, there was a need to pay special attention to the reflection of human fate, socio-political processes in an artistic work, and their study as a whole system. The main way of expression brought to fiction by representatives of the manifestations of existentialism, which arose in the beginning of the 20th century, is determined by the uniqueness of non-realistic interpretation. It is not a secret that the fate of humanity, its sufferings and its past are conveyed to the reader in an incomprehensible way on the basis of the symbolic and metaphorical perception started by intellectuals such as J. Joyce, M. Proust, F. Kafka, A. Camus. The creative research that took place in this unreal life has not lost its status even today. Philosophical-psychological, aesthetic coverage that has arisen during the period of almost a hundred years proves the plastic variability of the narrative genre. The need to study these aspects on a large scale is a clear proof of our above thoughts.

It is a fact that the roots of non-realistic stories in current Uzbek prose and their gradual development are based on ancient Greek and our national literary traditions. The modification of understanding of the non-realistic story poetics of life material re-perceived in the mind and thinking of the author creates conditions for the expansion of the aesthetic scope of the research. This form of expression testifies to the intensification of the poetic style of prose of the new era. After all, «Building a new Uzbekistan is a further study of our recent and distant history, unique and inimitable cultural values and reliance on them, the continuation of our independent national development path at a new stage»¹. In fact, in the world manifested in the union of the mind and the soul, the skill of psychological perception is becoming more and more diverse in order to correctly interpret the problems of the person living in the world. The reflection of the philosophical-aesthetic expression in non-realistic stories and the research of the abstract image of the writer's ideal determines the relevance of the topic.

¹ Мирзиёев Ш.М. “Янги Ўзбекистон” газетасига интервью.// Янги Ўзбекистон, 2021 йил, 17 август.

The edicts PF-4958 "On the further improvement of the education system Post-Higher Education" dated of February 16, 2017, PF-5847 dated October 8, 2019 "On approval of the concept of development of the higher education system of the Republic of Uzbekistan until 2030", the decree No.PQ-3271 "On the program of comprehensive measures to develop the system of publication and distribution of book products, increase and promote book reading and reading culture"dated of September 13, 2017, the decree No. PQ-3775 dated June 5, 2018 "On additional measures to improve the quality of education in higher education institutions and ensure their active participation in comprehensive reforms implemented in the country", the Resolution of the Ministry of Education and Culture No. 576 "About science and scientific activity "dated on October 29, 2019, the Decree of President of Uzbekistan No. PF-60 of January 28, 2022 "On the Development Strategy of New Uzbekistan for 2022-2026" and other regulations related to the activities of this field to some extent serve in the implementation of the tasks set out in this dissertation.

Correspondence of the research to the priorities of the development of science and technology in the Republic. This study was carried out in accordance with the priority direction of the republican science and technology development I. "Formation of a system of innovative ideas and ways of their implementation in the social, legal, economic, cultural, spiritual and educational development of the information society and democratic state."

